



O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta mahsus ta'lim vazirligi
Z.M.Bobur nomli Andijon davlat universiteti
“Pedagogika” fakulteti
“Musiq va uni o'qitish metodikasi” kafedrası
“ Musiq ta'limi ” yo'nalishi 4-bosqich talabasi
Maxfuza Karimovannig
« MUSIQA MAKTABLARIDA
XOR DARSLARINI TASHKIL
QILISHNI PEDAGOGIK AHAMIYATI » MAVZUSIDAGI
5111100-musiqiy ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr akademik
darajasini olish uchun yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI



Ilmiy raxbar:

X.Botirova

Andijon 2015

Mavzu: Musiqa maktablarida xor darslarini tashkil qilishni pedagogik ahamiyati

KIRISH.

1.Bob. O'zbekistonda xor san'atini rivojlanishi.

I.1. Jamoa bo'lib kuylash tarbiya vositasi.

I.2. Xor ta'limi va tarbiyasi

II.Bob. Xor haqida tushuncha.

II.1. Professional xor san'tining rivojlanishi.

II.2. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodlari.

Xulosa

Ilova

Foydalanilgan adabiyotlar

Mundarija

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning islox qilinishi fanlar qatori musiqa maktabda xor fanining o'qitilishiga ham tub burilish yasadi.

O'quvchi va o'qituvchi o'quv jarayonining faol ishtirokchisi tamoyiliga asoslangan holda yaratiladi, o'tilishi lozim bo'lgan 34 soatning har biri alohida darslarga ajratib chiqiladi. Har bir darsning maqsadi bayon qilinadi va dars jarayoni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida yoritib beriladi. O'quvchilarning darsda faolligini oshirish uchun dars jarayonida bir qancha o'yinlarni qo'llash tavsiya etiladi. Bu o'yinlar albatta o'qituvchi tomonidan kengaytirilishi ham mumkin.

Xor bo'lib kuylash darsi musiqa tinglash, jamoa bo'lib kuylash, musiqa savodi, musiqa ijodkorligi, kabi faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. O'quvchilar o'zlarining psixologik – fiziologik harakteriga ko'ra bir-birlaridan farq qiladi. O'quvchilarning diqqat – e'tibori bir narsadan boshqa narsaga tez almashadi. Ular o'yin bilan bog'liq bo'lgan narsalarga ko'proq moyil bo'ladilar. Darsning har bir faoliyat turida bolalar turli musiqa asboblarida chalish, kuy va qo'shiqlarga mos raqs harakatlarini bajarish, musiqa ritmiga mos chapak chalib jo'r bo'lish kabi elementlardan keng foydalanishi darsning jozibali va qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. Dars unimli o'quvchilarda hosil bo'lgan yorqin musiqiy taasurotlar va badiiy ijodiy kechinmalar, musiqaning tuzilishi va ifoda vositalari haqidagi bilimlarining boyishi hamda ko'nikma, malakalarining takomillashuvi bilan baholanadi.

O'quvchilarning ma'naviy olami va madaniy saviyasining yuksalishida, DTS va o'quv dasturi asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarining to'liq shakllanishida, musiqaga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttirishda o'quvchilarga yordam beradi.

Musiqa maktablarida xor o'quv predmeti o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini, milliy g'urur va vatanparvarlikni shakllantirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga fikr

doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashbbuskorlikni tarbiyalashga hizmat qiladi. Jamoa bo`lib kuylash o`quv predmeti musiqa maktablarida o`qitiladigan barcha o`quv predmetlari jumladan, mutaxassislik, musiqa nazariyasi, solfedjio, musiqa tarixi, notani varaqdan o`qish va umumiy fortepiano fanlar bilan uzviy bog`langan.

Barcha o`quv fanlari qatori musiqiy ta`limda ham davlat ta`lim standartining joriy etilishi milliy musiqiy merosdan to`laqonlik foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuyi va qo`shiqlarida xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyati, zamonaviy musiqiy faoliyatda o`z aksini topgan. Musiqa san`atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalash, ularning barkamol bo`lib yetishishlarida o`ziga hos va takrorlanmas manba bo`lib hizmat qiladi. Azaldan sharq, jumladan, o`zbek musiqa ta`lim – tarbiyasi pedagogikasi va uning mukammal uslubiyotlari ustoz va shogird an`analari misolida takomillashib borgan.

Davlat ta`lim standartlari ommaviy xalq musiqa pedagogikasi, professional musiqa ijodkorlari, musiqa ijrochilari (sozanda va xonandalar) asarlarining elementar asoslarini o`rgatishni me`yorlashtiradi. Musiqa ta`limi DTS hamda yangi ta`lim mazmuni asosida o`quvchilarning musiqiy bilim va malakalarini oshirish bilan birgalikda ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tasavvur qilish, ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi hislatlarni rivojlantirishni ta`minlaydi. Shu bois musiqiy ta`limning yangi mazmuni yosh avlodni milliy musiqiy merosimizga voris bo`la oladigan, umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson qilib voyaga yetkazishni nazarda tutadi. Bunda o`quvchilarning musiqa san`atini butun nafosati bilan o`rganishlari ommaviy musiqa faoliyatlari: musiqani badiiy idrok etish, yakka va jamoa bo`lib qo`shiq kuylash, raqsga tushish va ijodkorlik malakalarini shakllantirish asosiy maqsad hisoblanadi.

Shuningdek o`quvchilarning musiqa san`atiga mehr va ishtiyoqini oshirish, musiqa san`atiga qiziquvchi o`quvchilarning musiqiy iqtidorini

rivojlantirish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratib berish, ularning badiiy ehtiyojlarini qondirish musiqa ta'lim – tarbiyasining asosiy vazifasini tashkil etadi. Shu bilan birga, o'quvchilar jaxon xalqlarining nufuzli durdona asarlari bilan tanishadilar. Jamoa bo'lib kuylash faoliyati o'quvchilarning musiqiy qobiliyati hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarur. Jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchi o'zining ovoz ijrosini boshqarishni, ustozlari ijrosini eshitib, kuzatishni hamda ular bilan bahamjixat jo'rnavozlik qilishni o'rganadi. O'zbek xalq qo'shiqlari, Jaxon va o'zbek kompozitorlari qo'shiqlaridan foydalanishadi. Dars mashg'ulotlarida yetakchi faoliyat sifatida idrok muhim ro'l o'ynaydi. U ikki holatda amalga oshadi: birinchi holatda ma'lum asar tinglanib, idrok etiladi va uning badiiy tavsiflari dars mavzusiga doir oddiy musiqiy - pedagogik tahlil etiladi. Eshitish orqali asarni tushunish va ongli idrok etish, asarning musiqiy xususiyatlari (janri, tuzilishi, ifoda vositalari, ijrochiligi) hamda badiiy mazmuni haqida ma'lum bilimga ega bo'linadi. Ikkinchi holatda musiqa asarlari avval tinglanib (idrok etilib), so'ng u yoki bu faoliyat ko'proq kuylash orqali o'rganiladi, uning badiiy mazmun xususiyatlari amaliy faoliyatda ifodalanadi. Masalan, o'rganiladigan qo'shiq avval o'qituvchi ijrosida (tasma orqali ham) bir –ikki marta tinglanadi, asar xususiyati haqida suxbat qilinadi, so'ng o'rganishga kirishiladi. Kuylash faoliyati o'quvchilarning musiqa – o'quv qobiliyati hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchi o'z ovoz – ijrosini boshqaradi, o'rtoqlari ijrolarini eshitib kuzatadi va ular bilan birga jo'r bo'lib kuylashga intiladi.

Bitiruv malakaviy ishimning dolzarbligi: O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi o'z professional xor san'atiga ega bo'lmasa-da, lekin qadim zamonlardan beri jamoa (xor) bo'lib qo'shiq aytish an'analari ega bo'lgan. Ma'lumki o'zbek xalqi ham, boshqa xalqlar kabi asrlar davomida o'zining mehnat faoliyati, turmush tarzi bilan bog'liq bo'lgan musiqiy durdonalarini yaratgan, e'zozlagan va uni og'zaki usulda avloddan – avlodga

qoldirgan. Ushbu ishning dolzarbligi xozirda xor jamoalarining rivojlanish jarayonini yoritib berish.

Bitiruv malakaviy ishimning maqsadi: Musiqa va san'at maktablarida o'quvchilarga xor darslarini ilmiylik asosida, Davlat Ta'lim Standartlariga tayangan holda yoritish. Musiqa madaniyati darslari o'quv tarbiyaviy ishning asosiy shakli, texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarilishini ko'zda tutadi. Musiqa darslari Davlat Ta'lim Standartlar asosida musiqiy nazariy bilimlarni, musiqiy dunyoqarashlarini, musiqiy qobiliyatini, axloqiy fazilatlarini shakllanishini aniq belgilab beradi va shunga mos holda musiqiy ta'lim tarbiya maqsadini umumiy holda belgilab beradi.

Bitiruv malakaviy ishimning ob'ekti

1961 – yil Respublikamizda televidenie va radio qoshida tashkil topgan O'zbekistonda milliy – professional xor san'ati yuzaga kelishi. Xor kollektiviga B.Umidjonov rahbarligida muhim hissa qo'shilgani. Bu xor orqali xor san'ati xozirgi kunda ham rivojlanib kelayotgani. shu Xor uchun juda ko'p asarlarni yozgan B.Umidjonovning asarlari. Shu asarlar hozirgacha maktab, kollej va oliygoxlarda darslik sifatida ishlatib kelinmoqda. Uning ijodiy boyligi O'rta Osiyo va Qozog'iston, Qirg'iziston xalqlarining ellikdan ortiq original va qayta ishlangan qo'shiqlarini o'z ichiga olgan. 1982 – yili O'zbekiston Televidenie va Radio xori Respublikada hizmat ko'rsatgan kollektiv nomiga sazovor bo'lgan.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari: Prezident I.A.Karimov asarlari, “Ta'lim to'g'risida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, Davlat farmonlari, tadqiqot mavzusiga oid tadqiqotchi olimlar risola va qo'llanmalari hamda darsliklar tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishim kirish, II bob 4 paragr f xulosa, ilova va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I.Bob. O'zbekistonda xor san'atini rivojlanishi

O'zbek musiqasini asosi bir ovozli bo'lganligi sababli ko'p asrlar davomida ko'p ovozli xor ijrochiligi amalda qo'llanilmagan. Xor san'ati respublikamizga 1920 – yillardan keyin kirib kelgan. Ko'p ovozli xor dastlab musiqali drama va komediyalarda xalq musiqasini xorga moslab qayta ishlagan holda qo'llanilgan.

M.Ashrafiyning “Bo'ron” operasi T.Sodiqovning “Layli va Majnun” operasi kabi ko'p ovozli o'zbek xor ijrochiligi xor rivojida katta rol o'ynaydi.

M.Burxonov, S.Boboev, I.Akbarovlar birinchi xor asarlarini respublikamizda xor ijrochiligini o'sishiga katta yo'l ochib bergan va birinchi o'zbek xor kapellasi 1952 – yili tashkil topgan, raxbari S.Valenkov bo'lgan. Ko'p ovozli xor san'atining jadal rivojlanishi 50 – 60 yillarga to'g'ri keladi. Har yili qo'shiq bayramlari festivallar o'tkazilib, unda ko'p mungli xor kollektivlari qatnashgan.

O'zbekistonda milliy – professional xor san'ati yuzaga kelishida 1961 – yil Respublikamizda televidenie va radio qoshida tashkil topgan. B.Umidjonov raxbarligidagi xor kollektivi muhim hissa qo'shgan. Bu xor orqali xor san'atini aktiv targ'ib qilib kelgan. B.Umidjonov shu xorga juda ko'p asarlarni yozgan va qayta ishlagan.

Shu asarlar hozirgacha maktab, kollej va oliygoxlarda darslik sifatida ishlatib kelinmoqda. Uning ijodiy boyligi O'rta Osiyo va Qozog'iston, Qirg'iziston xalqlarining ellikdan ortiq original va qayta ishlangan qo'shiqlarini o'z ichiga olgan. 1982 – yili O'zbekiston Televidenie va Radio xori Respublikada hizmat ko'rsatgan kollektiv nomiga sazovor bo'lgan.

Keyingi yillar davomida Respublikamizda bolalar xori keng rivojlanib, o'z ijrochilik mahoratini oshirib kelmoqda. Har yili Respublikada o'tkazilib kelinayotgan an'anaviy “San'at bayram” lari ko'rik konkursi musiqa va umumta'lim maktablarining ko'pdan-ko'p kollektivlarini jalb etgan.

Yaqindan beri bu konkurslarda “Bolalar bahori” ko’rik tanlov keng ommani o’ziga qamrab oldi.

O’zbekistonda hizmat ko’rsatgan bastakor SH.Yormatov raxbarligidagi O’zbekiston Televidenie va Radiosining “Bulbulcha” milliy bolalar xori O’zbekistonda eng yetakchi bolalar xor kollektivlaridan biri. Bu xor kollektivi Yugoslaviya, Finlyandiya, Moskva shaharlarida o’z ijrochilik mahoratlarini muvaffaqiyatli namoyish qilgan.

Musiq va san’at kollejlarida, Pedagogika kollejlarida va Universitet, Madaniyat Institut va Konservatoriyalarida ko’plab xor kollektivlari mavjud. Har yili 1 – Martdan 7 – Martgacha M.Ashrafiy nomidagi “Xor musiq haftaligi” ko’rigi o’tkazilib turiladi.

O’zbekiston bastakorlari xor musiqasining turli janrlarida ijod qilib muvaffaqiyatga erishmoqda.

O’zbekistonda xor madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi.

An’anaviy kollektiv ijrochilik formalari.

O’rta Osiyo xalqlari, jumladan, o’zbek xalqi o’z professional xor san’atiga ega bo’lmasa-da, lekin qadim zamonlardan beri jamoa (xor) bo’lib qo’shiq aytish an’analariga ega bo’lgan. Ma’lumki o’zbek xalqi ham, boshqa xalqlar kabi asrlar davomida o’zining mehnat faoliyati, turmush tarzi bilan bog’liq bo’lgan musiqiy durdonalarini yaratgan, e’zozlagan va uni og’zaki usulda avloddan – avlodga qoldirgan.

Xalq ijrochiligi san’atida aralash (erkaklar va ayollar) xorlar formasi deyarli bo’lmasa-da, alohida erkaklar, ayollar va bolalar tomonidan qo’shiq aytish an’analari bo’lgan. Masalan, turli diniy marosimlarda, mavsumiy sayllarda, ramazon oyida bolalarning qo’shiq aytishi yoki kattalarning zikr tushishi, marsiya qo’shiqlarini aytish ham jamoa ijrosining bir turidir. Shuningdek, bolalar tomonidan «Boychechak», «Laylak keldi», «Oftob chiqdi» kabi dunyoviy mazmundagi xalq qo’shiqlari aytilganda ham jamoa (xor) ijro formasini ko’rish mumkin.

An'anaviy Navro'z – lola bayramlarida yigit va qizlarning qo'shiq aytishi, qadim zamonlardan beri to'ylarda aytiladigan yor-yor, yallalar xor (va yakkaxon) bo'lib ijro etilgan. Asrlar davomida to'plangan ko'hna meros «Shoshmaqom»ning vokal qismidagi taronalar ham uch – to'rt (va undan ko'p) xonandalar tomonidan jamoa bo'lib aytilgan. Xalqimiz orasida keng tarqalgan (ayniqsa, Farg'ona vodiysida) « Katta ashula»lar ham ikki, uch va hatto to'rt kishilashib ijro qilingan. Bu ijrochilik formalari ham jamoa ijrosining bir turidir. Shuni ham aytib o'tish kerakki, yuqorida eslatilgan janrlar bir ovozda (ba'zi biri ayollar, ba'zi biri erkaklar tomonidan) ijro qilingan.

Ana shu folklor qo'shiqlarining (yor-yor, o`lan, yalla, lapar, besh qarsak, katta ashula, hashar) va maqomlardan (tarona, ufor, naqsh) ayrim qismlarni jamoa (xor) bo'lib aytish kabi ijrochilik formalari kelgusida o'zbek xalqi orasida xor havaskorligi, qolaversa, o'zbek xor san'atining rivojiga zamin bo'ldi.

Havaskorlik xor san'atining rivojlanishi

Oktyabr inqilobidan keyin O'zbekistonda musiqa va xor badiiy havaskorligi rivojlana boshladi. Xususan, shu yillarda o'quvchi va yoshlar o'rtasida (maktablar va o'quv yurtlarida) musiqa havaskorligi keng tarqaldi. Musiqa, xor va raqs to'garaklari tuzila boshlandi.

Har bir to'garakda, albatta, bir ovozli kichik xor ansambli bo'lib, yallalar, laparlar, madhiya ijro etilar edi. Shu yillarda o'zbek musiqa madaniyatining rivojlanishida Hamza Xakimzoda Niyoziyning faoliyati muhim rol o'ynadi.

Hamza xalq orasida keng madaniy – oqartuv ishlarini olib bordi. U o'z agittruppasi bilan qayerda kontsert bermasin, o'sha yerda shu truppa ta'sirida havaskorlik to'garaklari tashkil qilingan. Shu yillarda, ayniqsa, maktablarda musiqa – xor havaskorligi keng quloch yoydi. O'lkaning shahar va qishloqlaridagi maktablarda maktab-teatr havaskorlik to'garaklari bunyodga

keldi. Bu to'garaklar xor, raqs va badiiy so'z guruxlaridan iborat edi. Toshkentda maktab – teatr havaskorligi ishini tashkil etishda V.Sakovich, Ali Ardobus kabi tashabbuskorlar jonbozlik ko'rsatdilar.

Masalan, 1919 yilda V Sakovich tashkil qilgan maktab-teatr jamoasi 300 ta bolani birlashtirdi. Bu jamoa ham bir necha (xor, drama, raqs) guruxini o'z ichiga olgan edi. Xususan, V. Sakovichning shu « Zebuniso» maktabida tuzgan qizlar xori yaxshi natijalarga erishdi va keyinchalik (1924 y.) bu xor « San'atchi qizlar» nomi bilan yuritildi.

1919 yilda Sh. Shoumarov « Na'muna» nomli o'zbek maktabida 1922 yilda Saodatxonim Yenikeva Toshkent inprosida o'zbek qizlaridan shunday jamoalar tuzadilar. Usta Olim Komilov Marg'ilonda, Matyusuf Harratov Samarkandda bir necha yil havaskorlik jamoalari bilan ishlashadi. Shu yillarda Turkiston kontsert brigadasi tashkil topadi. Bu brigadada O'zbek, Qirg'iz, Tatar, Rus, Tojik, Ukrain va Turkmanlardan iborat bo'lib, ular ommaviy qo'shiqlarni va milliy ashulalarni kuylash bilan birga, o'zlari ham qo'shiqlar to'qishar edi. Masalan « Botir askar», « Soqchi» va shu kabilar. Hamza Xakimzoda Niyoziy ham o'z gruppasi bilan Turkfront qismlarida kontsert bergan. U har bir kontsertda yangi qo'shiq to'qir va jamoa bilan ijro qilar edi.

30 – yillarga kelib, musiqa xor havaskorligida o'sish ko'zga tashlanadi. Musiqa – xor havaskorlik to'garaklari repertuarida zamon ruxidagi yangi- yangi qo'shiqlar paydo bo'la boshladi. Yetuk bastakorlar (professional musiqachilar) Yunus Rajabiy, Imomjon Ikromov, Orif Qosimov va yosh bastakor Faxriddin Sodiqovlar bir, ikki ovozli xor qo'shiqlari (yallalar, marshlar va xoqazo) yaratadilar. Masalan, Yunus Rajabiyning « Bizning qishloq», Faxriddin Sodiqovning «Xormang endi, kolxozchilar» kabi ommaviy qo'shiqlari havaskorlik kollektivlarida keng tarqalgan edi.

1934 yilda Toshkentda Oktyabr inqilobining o'n yetti yilligiga bag'ishlangan havaskorlik san'atining oblast musiqa – badiiy olimpiadasi o'tkazildi. Bu anjumanda respublikadan birinchi bor 1000 kishilik qo'shma

xor qatnashdi. Olimpiada respublikada musiqa – xor havaskorligi ishini ancha oldinga surdi.

1937 yilda Moskvada o'tgan O'zbekiston adabiyoti va san'ati dekadasiga va 1938 yilda o'tgan Birinchi respublika badiiy havaskorlik olimpiadasiga tayyorlanish va o'tkazish davrida (asosang, o'quv yurtlari va maktablarida) musiqa – xor havaskorlik jamoalari son jihatdan ko'paydi. Lekin ijro sifati ham past edi.

1946 yilda badiiy havaskorlikning Ikkinchi respublika olimpiadasi o'tdi. Olimpiadani tayyorlash va uni o'tkazish davrlarida ko'pgina yangi musiqa – xor havaskorlik kollektivlari tashkil topdi,

Olimpiada yakuni musiqa – xor havaskorligidagi mavjud qator kamchiliklarni aniqlab berdi. Bular ko'p ovozli o'zbek xorlarining yo'qligi, repertuarida zamonaviy asarlarning kamligi va hokazolar.

1947-1948 yillarda o'tkazilgan ko'rik va O'zbekistonning 25 yillik yubileyiga bag'ishlab o'tkazilgan uchinchi respublika olimpiadasi respublikada musiqa – xor havaskor jamoalari faoliyatida birmuncha siljish borligini tasdiqladi.

Ayrim xor kollektivlarining akapella uslubida kuylash imkoniyatlariga ega ekanliklari va boshqa kollektivlarining ham ijro madaniyati o'shanligi quvonarli hol edi, albatta.

1950 yillardan boshlab yetuk musiqa – xor namoyandalari – Toshkent Davlat Konservatoriyasi, musiqa bilim yurtlari, madaniy – oqartuv texnikumi o'quvchilari va talabalari qishloqlarga va viloyatlarga chiqib yangi-yangi xorlar tuzdilar.

Xorlar ijrosida S. Yudakovning « Tinchlik tarafdori marshi,» A. Muhammedovning « Tinchlik bayroqdori», S. Yudakovning « Mirzacho'l» syuitasidan ayrim qismlari va boshqa ko'p ovozli asarlar yangradi.

Bu hol yuqoridagi jamoalarning ko'p ovozda kuylash madaniyatiga egaliklaridan dalolat beradi. Shu yillarning xor havaskorligida ko'p ovozlilikni o'zlashtirish borasida birinchi qadam qilingan edi.

Xor havaskorligining rivojlanishida ketma-ket 1953, 1954, 1955 yillarda o'tgan respublika Ashula bayramlari muhim rol o'ynadi. Xor jamoalari repertuarlarida yangi- yangi ashulalar paydo bo'ldi. S. Yudakovning « O'zbekiston», D.Shostakovichning « Tinchlik qo'shig'i», M.Glinkaning « Ivan Susanin» operasidagi « Shuhrat qozon», I Izomovning « Qahramon qizlar» va boshqalar o'rin oldi.

Bugungi kunda O'zbekistonda musiqa va xor havaskorlik san'atiga yanada katta e'tibor berilmoqda. Shuni ham aytib o'tish kerakki, hozirgi paytda respublikamizda yuzlab ashula va raqs ansambllari mavjud. Bunda ikki – uch ovozli erkaklar va ayollar vokal ansambllari tuzilgan bo'lib va keyinchalik uch – to'rt ovozlik xor – vokal guruhlar tashkil qilingan. Bu esa maxalliy xalq orasida xor qo'shiqchiligini rivojlantirishning omillaridan biridir.

Shunday qilib, xalq jamoa – ijrochilik an'analari negizida tug'ilgan musiqa – xor havaskorligi 70 yildan ortiqroq davrda shakllandi va rivojlandi.

I.1.Jamoa bo'lib kuylash tarbiya vositasi.

Xor – hozirgi kunda keng tarqalgan xalq san'ati turlaridan biridir. Kollektiv ijrochiligi odamlarda chuqur estetik zavq uyg'otibgina qolmay, ularni jipslashtiradi hamda ma'naviy saviyasini, badiiy didini oshirishga yordam beradi. So'z va musiqadagi tuyg'u bir odam orqali emas, bir guruh odam tomonidan ifoda etilishidir. Xor insonning eng yaxshi his tuyg'ularini uyg'otib, xayajonlantirish, qiziqtirish xususiyatiga ega. Shu sababdan xor ishtirokchilari bilan bir qatorda tinglovchilarning ham badiiy – g'oyaviy tarbiyalinishidagi roli juda katta. Tarbiya vositasi sifatida xor ijrochiligining an'analari qadim davrlarga borib taqaladi. Ko'p millatli xalqimizning voqealarga boy bo'lgan butun tarixi qo'shiq bilan bog'langan va unda o'z aksini topgan.

K.D.Uminskiy. qo'shiqlarida va ayniqsa xor ijrosidagi qo'shiqda umuman bir tomondan insonni jonlantiruvchi va harakatga soluvchi sifatlar bo'lsa, boshqa tomondan mehnatni tashkil qilishga birdamlik bilan birorta maqsadga erishishga undovchi hislatlar bor – degan. Shu sababdan qishloq ahli mehnat jarayonida ish kuchini birlashtirish uchun xor qo'shiqlaridan keng ko'lamda foydalanadilar. Umum ta'lim maktablarida o'quv yurtlarida, tarbiya muassasalarida ham xorlar tashkil topgan.

Xor alohida bir qancha tuyg'uni yagona kuchli tuyg'uga birlashtiradi va bir qancha qalbni yagona teran his qiluvchi qalpga aylantiradi, ko'pchilikning kuchi bilan bilim olish mashaqqatlari ustidan g'alaba qilinishi kerak bo'lgan maktabda bu juda muhim jarayondir. Hozirgi tarbiyada Mustaqil O'zbekistonimizning kelajagi tarbiyasida ham xor juda katta rol o'ynaydi. Bolalarda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ulari va ko'pchilik bo'lib birlashish kabi hislatlarni tarbiyalashda xor ijrochiligi juda katta ahamiyatga ega. Bolalar xor bo'lib kuylaganda qo'shiq bir ovozli ijroga nisbatan ta'sirchan va ifodaliroq ekanligini anglaydilar. Bunday ijrochilik hosiyaatini anglash bolalarga katta ta'sir ko'rsatadi.

Musiqqa tarbiyasi va estetik tarbiya

Respublikamizda estetik tarbiyani takomillashtirishda va buning uchun kerakli sharoitlarni yaratishga jiddiy e'tibor berishmoqda.

Musiqqa madaniyati yosh avlodning estetik va axloqiy tarbiyasiga ta'sir ko'rsatishini tahlil qilish asosiy maqsad qilib qo'yildi.

Xalq musiqasi va professional musiqqa yoshlarni estetik axloqiy tarbiyalashning muhim vositasidir. Musiqqa madaniyati hayotimizda keng o'rin tutgan, inson shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etgan hamda go'zal san'at turidir. Musiqqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo'lib atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi. Musiqqa dunyoqarashni shakllantiradi va inson hissiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, o'qituvchilarni nafosat olamiga olib kirish va axloqiy – g'oyaviy tarbiyalashning muhim vositasidir. Musiqqa insonga tez ta'sir etuvchi emotsional hissiyotini aktiv rivojlantiruvchi vositadir. Inson musiqqa orqali ona allasi bilan tanishib umrbod musiqadan zavq topadi va madad oladi. Musiqqa inson ruxiyatini ajralmas qismi bo'lib, madaniyatli sof qalb egasi, go'zallikni his eta oladigan o'z kasbiga, Ona vatanga mehr qo'ygan bo'lishi kerak. shu bois o'qituvchilarda inson ma'naviyatining tarkibiy qismi bo'lgan musiqqa madaniyatini tarbiyalash musiqqa tarbiyasining bosh maqsadi bo'lib turadi. Bu oliy maqsadni amalga oshirish uchun musiqqa o'qituvchisining oldiga qo'yilgan vazifalari bir talay.

Musiqadagi maqsad va vazifalarni amalga oshirish o'qituvchining professional va axloqiy qiyofasiga bog'liq. Har qanday san'atkor ham maktabda musiqqa darsini olib bora olmaydi. Buning uchun musiqqa o'qituvchisi o'z kasbiga va bolalarga mehr qo'ygan yuksak madaniyatli, keng qarashga ega bo'lgan shaxs bo'lmog'i lozim. Musiqqa o'qituvchisi musiqqa san'atining nazariy va amaliy sohalaridan yetarli darajada bilim, ko'nikma va tajribaga ega bo'lishi lozim. Ya'ni u ham cholg'uchi, xonanda, mohir dirijyor, jo'rnavoz, musiqqa nazariyotchisi va amaliyotchisi sifatida ish

yuritmog'i va ko'rsatmog'i lozimdir. Dars musiqa tarbiyasida yetakchi omil hisoblanadi, chunki bolalar yalpi tarzida qamrab olinadi. Musiqa bolalarni aniq va axloqiy tarzda katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun musiqa darslari ong va avvalo tarbiya darsi deyiladi.

Bugungi kunda musiqa insonni shakllanishida muhim rol o'ynaydi, uning hissiyoti va fiziologiyasiga aktiv ta'sir ko'rsatadi. Bu vazifani amalga oshirishda musiqa darsi muhim ahamiyatga ega.

Musiqa xor darslari umumiy ta'lim maktablarida o'quvchilarga badiiy ta'lim va axloqiy, estetik tarbiya berish tizimining bir qismi hisoblanadi. Umumiy ta'lim va hunar maktabini qilish munosabati bilan barcha fanlar qatori, o'quvchilarga musiqa bo'yicha beriladigan ta'lim va tarbiyaning mazmuni va maqsadi, uni amalga oshirishning shakl va metodlari ham qayta ko'rib chiqiladi, ularga ma'lum o'zgarishlar kiritiladi. Musiqa o'z tabiatiga ko'ra o'quvchilar hayotiga ularning o'zaro munosabatlariga hamda turli voqealarga munosabatini va ichki kechinmalarini xilma-xil tovush bo'yoqlari bilan badiiy obrazlar vositasida tasavvurlaydi. Musiqa inson hissiyotiga kuchli ta'sir eta olishi hususiyati bilan birga o'quvchilarga axloqiy – g'oyaviy tarbiyani o'rgatadi.

Musiqa fani (xor) quyidagi vazifalarni amalga oshiradi.

1. O'quvchilarda xorga ihlos uyg'otish, ularning musiqiy qobiliyatlarini (ritm tuyg'usi, musiqaviy o'quvi, diqqati, tasavvur va xotirasini, badiiy didini) o'stiradi.

2. O'quvchilarda milliy musiqa merosimizda va u orqali Ona – vatanga muhabbat hissini tarbiyalash, jamiyatga foyda keltirishga ishtiyoq farzandlik o'quvchilik burchini va jamoatchilik oldidagi burchini anglash, do'stlik, o'rtoqlik va insonparvarlik tuyg'ularini tarkib toptirish. Didsizlik, xunuklik, g'oyasizlik, dangasalik, tubanlik kabi salbiy hislatlarga nisbatan murosasiz bo'lishni tarbiyalash.

3. O'quvchilarning badiiy ijodkorlik qobiliyatini o'stirish, ularning hayotga, o'qishga, mehnatga va turli hatti-harakatlarga go'zallik olib kirish

qobiliyatini rivojlantirish. O'z-o'ziga va atrofdagi barcha narsalarga go'zallik kiritishga o'rgatadi.

Ma'lumki, musiqa darslari xorda kuylash musiqa savodi, musiqa kuylash va nota bilan kuylash kabi asosiy musiqiy faoliyatlarni o'z o'zini ichiga oladi. Darsning har bir faoliyat turida doirachilar, shaqqildoqlar, uchburchak, metallofon kabi turli bolalar musiqa asboblari chalinadi. Kuy va qo'shiqlarga mos raqs elementlarining bajarish musiqa asboblari chalinishining qo'l harakatlari bilan anatatsiya qilish, chapak chalinadi va drijorlik qilish kabi elementlardan keng foydalanish, darslarning yanada qiziqarli va jozibali bo'lishini ta'minlaydi.

I.2.Xor ta'limi va tarbiyasi.

Respublikada dastlabki yillardayok mehnatkashlar ongini san'at vositalari bilan ma'naviy kamol toptirishga katta e'tibor berildi. O'sha davridayoq musiqa – xor san'atining madaniy – oqartuv ishlaridagi ahamiyatini ko'ra bilgan edi. Shuning uchun mehnatkashlar o'rtasida keng propaganda ishlari olib borildi.

O'lka xalqlariga ommaviy musiqa tarbiyasi berish uchun musiqa va xor dirijyorligi ta'limi yo'lga qo'yish, ya'ni umumiy ta'lim maktablari hamda musiqa xor havaskorlik kollektivlari uchun ma'lumotli ashula va musiqa o'qituvchilari, malakali raxbarlar tayyorlash kerak edi. Sekin – asta musiqa o'quv yurtlari ochilib, bu zarur masala amalga osha bordi.

O'zbekistonda ommaviy musiqa – xor vositalari orqali tarbiyalash 20 – yillardan boshlandi.

1918 yilda Toshkentda, 1919 yilda Samarqandda va boshqa shaharlarda xalq konservatoriyalari ochiladi. Bu konservatoriyalarda xor sinflari bo'lib, xor ijrochiligi bo'yicha umumiy ta'lim ishiga katta ahamiyat berilar edi. Milliy kadrlarga musiqadan dars berish va xalq qo'shiqlarini yig'ish kabi muhim ishlar xalq konservatoriyalarida boshlangan edi.

Shorahim Shoumarov, Abdusoat Voxobov, Imom Hakimovlar va boshqa Toshkent musiqachilari, eski shahar xalq konservatoriyasining (1919 y.) birinchi o'qituvchilari edilar. Mana shu konservatoriyani bastakorlardan Yunus Rajabiy, Imomjon Ikromov, Faxriddin Sodiqov, Po'latjon Rahimovlar bitirib chiqqan edilar. Ular o'zlarining xor qo'shiqlari va musiqualari bilan o'zbek musiqa madaniyatini yanada boyitdilar.

1922 yilda respublikada sakkizta xalq konservatoriyasi mavjud edi.

Ommaga musiqa tarbiyasi berishda xalq konservatoriyalarining o'sha davrdagi hissaları kattadir. Keyinchalik xalq konservatoriyalari yangi, zamon talabi va vazifalariga to'liq javob bera olmay qoldi. Natijada, ular musiqa maktablari va texnikumlariga aylantirildi. Shu davrda O'zbekistonda 1921 yilda atiga 7 ta musiqa maktabi bor edi.

Toshkentdagi ikki xalq konservatoriyalari birlashib, « O'lk konservatoriyasi – dirijyor – instruktorlik kurslari», deb nomlandi. Toshkent , Buxoro, Namangan, Andijon, Samarqand va boshqa shaharlarda oldin musiqa maktablari, keyinroq musiqa texnikumlari ochiladi va ularda birinchi marta dirijyor – instruktorlik bo'limi ishga tushadi.

Shunday qilib, musiqa texnikumlarida xor instruktorlari tayyorlash bo'limlari faol ishlab bordi, musiqa - xor ishlari va xor dirijyorlik ta'lim bo'yicha birinchi qadamlar qo'yildi.

1935 – 1936 yillarda Respublika musiqa madaniyati tarixida katta voqea sodir bo'ldi. Respublika xalq ijodiy uyi, Toshkent Davlat konservatoriyasi, Davlat Filarmoniyasi va xor kapellasi keyinchalik ashula va raqs ansambli tashkil qilindi. Bular hammasi O'zbekiston musiqa – xor ta'limi va tarbiyasini shakllantirish prostessini jonlantirdi.

Urush yillari Toshkenga evaquatsiya qilingan Leningrad konservatoriyasi faoliyati ham respublikada musiqa ta'limi va tarbiyasining rivojlanishiga ijobiy ta'sir qildi. 1941 yilda Toshkent konservatoriyasida xor dirijyorlari tayyorlovchi musiqa – pedagogika bo'limi ochildi.

1943 -1944 o'quv yilida oldin musiqa bilim yurtlarida, keyin konservatoriyada musiqa – pedagogika bo'limi xor dirijyorligi bo'limiga aylantiriladi. Musiqa – pedagogika bo'limida o'qib turgan student va talabalar xor dirijyorligi bo'limiga o'tkaziladi.

1950 yillarda Toshkent Davlat konservatoriyasiga va bilim yurtlariga xor dirijyorlik bo'limlariga milliy xalq vakillari kela boshladi.

Shu yillarda respublikada musiqa bilim yurtlari, madaniy – oqartuv texnikumlari va yuzdan ortiq yetti yillik musiqa maktablari mavjud edi.

Toshkent Davlat konservatoriyasi musiqa bo'yicha ishlovchi xodimlar uchun musiqa pedagogika kurslari tashkil qildi. Konservatoriyaning xor dirijyorligi bo'limi studentlari ham rayon va oblastlarda havaskorlik xorlari tuzish kabi umumiy ishga aktiv qatnashdilar.

Professional, havaskorlik xor kollektivlari, shuningdek, musiqa bilim yurtlari uchun yuqori malakali milliy kadrlar – xormeyster va o'qituvchilar yetkazib berish maqsadida 60 – yillar boshlarida Toshkent Davlat konservatoriyasi qoshida ikki yillik tayyorlov bo'limi ochildi va tez vaqt ichida tayyorlov bo'limi kadrlar yetishtirib bera boshladi.

Shulardan biri, O'zbekistonda hizmat ko'rsatgan artist, televidenie va radio bolalar xorining badiiy raxbari Sh. Yormatov.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda qisqa davr ichida xor madaniyati barpo etildi.

Xorning badiiy – ijro yo'nalishi.

Professional va havaskorlik xorlari o'zining badiiy – ijrochilik yo'nalishlariga qarab, asosan, xalq xorlari va akademik xorlarga bo'linadi.

Bularning har biri o'zining spetsifik xususiyatiga ega. Akademik va xalq xorlari bir – birlaridan ijro uslubi, repertuari, tashkiliy asoslari, ish va boshqarish metodlari bilan farqlanadi.

Akademik xor ijrochiligi ham zamon talabiga javoban yangi yo'nalish oldi. Milliy musiqa ijodiyoti ravnaqi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Akademik xor san'ati bilan milliy xalq xor san'ati barobar o'sa bordi. Professional va havaskorlik xor san'atining asosini folklor tashkil qilganligi sababli ular o'zaro yaqinlasha bordilar.

Xalqning boy milliy an'anaviy san'ati (yuqori ijro mahorati) milliy professional san'atning rivojiga zamin yaratdi.

Akademik xorlar – janr xususiyatlariga ko'ra, xalq xorlaridan farq qiladi. Xorshunoslikda ko'pincha akademik yo'nalishdagi havaskorlik xorlari «Umumiy tipdagi xorlar» deb ham yuritiladi.

Akademik yoki umumiy tipdagi xorlar :

- «niqobdor» (yarim yopiq) tovushda, ya'ni akademik uslubda qo'shiq kuylashi,

- vokal strukturasi (qat'iy partiyalarga bo'lishini),

- asar partiturasining (aniq, o'zgartirmasdan, improvizatsiyasiz) o'rganish va ijro qilinishi,

- keng ijrochilik imkoniyatlarga ega bo'lishi, repertuarning xalq qo'shiqlaridan tashqari, rus hamda g'arb klassik asarlari, sovet kompozitorlari asarlaridan (turli murakkabligidagi asarlardan) tashkil topishi,

- dirijyorning kontsertlarda xorni boshqarishi shartligi kabilar bilan xalq xorlaridan farq qiladi.

Professional va yuqori malakali havaskor akademik xorlar boy repertuarga, keng diapazonga va ijro imkoniyatlariga ega bo'ladi.

Bunday tipdagi xorlarda vokal madaniyati yuqori darajada rivojlangan bo'lib, ular turli texnik qiyinchiliklarni ham yenga oladi. Akademik xorlarda (kontsertlarda va ish jarayonida) dirijyorning roli katta.

Akademik ijro uslubida :

- xor kapellalari,
- kamer xorlar,
- vokal ansambllari,
- turli akademik o'quv xorlari kuylaydi.

Akademik yo'nalishda jo'rsiz va jo'rli (simfonik orkestr, royal, duxovoy orkestr va xoqazo) ijrochilik formalari mavjud.

Ba'zida xalq cholg'u asboblari ansambli ham akademik ijroga jo'rlik qilishi mumkin. Masalan, ashula va raqs ansambllari va shu kabi.

Xor kapellalari - lotincha (« cappella») so'z bo'lib, xor kollektivini bildiradi.

O'rta asrlarda katolik cherkovidagi xor joylashgan yerni kapella deb yuritilgan. O'sha davrda jo'rsiz (akapella) ijro uslubi keng tarqalgan edi. Keyinchalik ba'zi bir knyazliklar qaramog'idagi xor kapellalariga mahsus asarlar yozilib, ularni orkestr jo'rligida ijro qilish formalari ham shakllana bordi. Shunday qilib, jo'rsiz (akapella) uslubda kuylash madaniyatiga ega bo'lgan professional yoki ayrim havaskorlik xorlari kapella deb yuritiladi.

Xor kapellalari repertuarining asosini akapella xor asarlari tashkil qiladi.

Kamer xorlari. - Kamer nemischa («kammer») – uy, xona ma'nosini bildirib, kamer xor esa o'ttiztacha (ba'zida undan ortiq) xonandadan tashkil topgan, o'rta sonli vokal kollektivdir. Uncha katta bo'lmagan bu turdagi xorlarga, asosan, musiqa ma'lumotiga ega talabalar va yoshlar qatnashadi.

Kamer xor ijrochilik formasi chet ellarda keng tarqalgan. Bunga sabab katta sostavli akademik xorlarni tuzish uchun kerakli ovozlarni (masalan, yaxshi bas-oktavachilarni), ko'p sonli xonandalarni jalb qilish hamda mashg'ulot, hatto kontsert uchun ham mahsus joy kerakligi kabi muammolarning yo'qligi va kamer xorlarning ijro va ish jarayonidagi serharakatligi, dinamik, ritmik mustahkamligi, ohangdagi mayin, dilrabolik kabi hususiyatlarga egaligidir.

Ba'zi kamer xorlar havaskorlikdan professional kollektivlarga aylangan. Shuning uchun ham hozir kamer xorlarning ikki – havaskorlik va professional shakli mavjud. Kamer xorlar yirik akademik xorlardan, avvalo, repertuari, xonandalar soni bilan farq qiladi. Ba'zida esa ovozlarning joylanishi ham boshqacha bo'ladi.

Kvartet usulda xonandalar (partiyalar) odatdagidek emas, balki to'rt (Soprano, Al't, Tenor, Bas) xonandadan iborat kvartetlar qilib joylashtiriladi.

Kamer xorlar keng kontsert – ijrochilik ishlari olib bordilar, Opera xorlari - Opera xor ijrochiligi o'ziga hos hususiyatga ega, Uning ohangi tomoshabinlarga orkestr sadolari bilan qo'shilgan holda yetib borishi uchun undagi nyuanslar (« tovush tusi» yoki jilvadorligi) aniq va barqaror bo'ladi. Aks holda, xor orkestr sadolari ostida eshitmay qoladi.

Operada xor muhim rol o'ynaydi. U dekorativ fon vazifasini bajarishdan tashqari, operaning umumiy dramaturgiyasida faol qatnashadi. Demak, xor operada dekorativ fondan harakatlantiruvchi kuch darajasigacha (dramatik o'sish natijasida) ko'tarilishi mumkin.

Opera xor ijrochiligining yana bir o'ziga hos xususiyati – xor ijrosining sahna harakati bilan bog'liqligidir. Xorning harakat paytida umumiy voqealarda ishtiroq etishi, har xil mizanstsenalarning mavjudligi xonandalarning dirijorni ko'rish imkoniyatini qiyinlashtiradi. Bu ishni osonlashtirish uchun xormeysterlar sahna ortidan (yoki yon tomonlarda) turib xorga kuylashni boshlash, tugallash va qay nyuanslarda kuylashni ishoralar bilan ko'rsatib turadilar.

Opera xorlarining asosiy vazifasi - butun opera spektakli davomida (ommaviy sahna va epizodlarda omma rolida) qatnashish.

Ashula va raqs ansambllari - Bu ijrochilik yo'nalishi qadimiy xalq san'ati negizida havaskorlikning yangi bir shakli tarzida tug'ildi. Ashula va raqs ansambli qo'shiq aytish va raqs san'atining organik birikmasidan iborat. U uch asosiy janrga mansub ijrochilar guruxini o'z ichiga oladi:

- xonandalar (vokal - xor) guruxi.
- sozandalar guruxi.
- raqqosalar guruxi.

Xor sostaviga yakkaxon xonandalar ham kiradi. Bu esa ansambldagi vokal – xor guruxining ijrochilik imkoniyatlarini oshiradi.

Bu ijrochi formasi armiya, xalq va yoshlar havaskorligida keng quloch yoydi. Hozirgi kunda, harbiy, xalq, yoshlar professional va havaskorlik ashula va raqs ansambllari faol ishlamoqda.

Xalq xorlari - xalq musiqa ijodiyotining keng tarqalgan formasi xisoblanadi. Mehnatkash xalq sayil va bayramlarda, uy va dala ishlarini bajarishda jamoa (xor) bo'lib qo'shiq aytgan, raqsga tushgan.

Shu ommaviy qo'shiqchilik bilan birga, sekin – asta ashula ansambllari ham rivojlana bordi. Bunday ansambllar bir joyda yashovchi yoki bir oila a'zolaridan iborat bo'lar edi. Shuning uchun ko'pincha bu ansambllarni oila ansambllari deb yuritilgan. Bu ansambllarda xalq qo'shiqlarini yaxshi biluvchi improvizatorlar qo'shilib kuylashgan.

Xalq xorlarining hususiyatlari - Ma'lumki, xalq xori maxalliy ijro uslubi va an'analariga, o'ziga hos repertuarga ega bo'lgan ijodiy kollektivdir. U xalq qo'shiqlarini xalq qo'shiqchilik hususiyatlarini saqlagan holda ijro qiladi. Har bir o'lka viloyat yoki respublikaning xalq xori o'z repertuari, vokal tarkibi, nutq fonetikasi, ijro uslubi bilan bir – biridan ajralib turadi. Xalq xori raxbarlari xor tuzishdan oldin o'sha yerning qo'shiq ijrosi yo'llarini bilishi, o'zi kuylay olishi, qanday turdagi xor tuzishni oldindan rejalashtirishi va keyin xalq qo'shiqlarini yaxshi biluvchi kishilarni topib, taklif qilish orqali bo'lg'usi xorning asosini barpo qilishi kerak. Ammo raxbar faqat maxalliy qo'shiqchilik an'analarini bilish bilan chegaralanmay, u xalq qo'shiqchiligining asosiy hususiyatlarini bilishi shart. Xalq xorlari quyidagi spetsifik hususiyatlari bilan akademik xorlardan farq qiladi.

- vokal strukturasi o'ziga hosligi,
- tabiiy ovozda kuylash,
- xalq polifoniyasida (ko'p ovozliligida) kuylash,
- improvizatsiya qilish va kollektiv ijodi,
- repertuarining o'ziga hosligi (xalq qo'shiqlari va xalq lad – tonligi asosida avtor tomonidan yozilgan asarlar),
- asarlarni dirijyorsiz ijro etish,
- registrlarning keskin chegaralanishi,
- xorning kichik – kichik vokal ansambllarga bo'lishini va joylashtirilishi, xorda to'rt (Soprano, Al't, Tenor, Bas) ovozning doimiy bo'lmasligi, ularning jumla oxirida unison yoki oktava unisoniga birlashishi.
- ansamblning o'ziga hosligi,
- yangi qo'shiq yaratish, qo'shiqni har xil o'yin va harakatlar vositasida ijro qilish.

Xalq xorlarning asosiy hususiyatlaridan biri (hususan, havaskorlik xorlarida) – jamoa bo'lib badixa yo'lida (improvizatsiya) ijro etishdir. Bunda yakkaxon ijrochi ko'pchilikning badixa yo'lidagi ijrosi bilan boyitiladi. Xalq

ijro uslubi va qo'shiqdagi asosiy kuyga jo'r bo'lishi («jo'rchi ovoz») polifonik usulning azaldan rivojlanganligini va harakterli hususiyatlaridir.

Xalq xorlarining tarkibi - xori o'zaro organik bog'langan uch ijrochilar guruxisidan iborat – xor, o'yinchi va sozandalar.

Xalq xorlari, odatda, qo'shiqni dirijyor boshqaruvisiz ijro etadi. Ular struktura jihatdan har xil bo'ladi, ya'ni xonandalar soni, yuqori va past ovozlar nisbati (ayollar va erkaklar ovozi) ma'lum bir qoidaga ega bo'lmaydi. Bo'larning hammasi mahalliy qo'shiqchilik harakteriga ham bog'liq. Shuning uchun ham bir joyda ayollar ovozi ustunligi (sonining ko'pligi va x.k.) takozo qilinsa, ikkinchi bir joyda erkaklar ovoziga ko'proq e'tibor beriladi. Hozirgi kunda professional xalq xorlarining ikki turi mavjud.

Birinchi - tarkibida yuqori soprano va pastki bas ovozlariga ega bo'lmagan, biroq ovozlar (tor) zich joylashgan o'rta diapazonli xorlar. Bu turdagi xorlarning diapazoni ikki oqtavadan oshmaydi. Yuqorida eslatilgandek, ayollar past (ko'krak), erkaklar esa tenor va bariton (yuqori) ma'lum notagacha registrda kuylaydilar. Soprano o'rnida ham al't ovozi qo'llaniladi. Umuman, ayollarning pastki registrda kuylashi tabiiy nutq bilan bog'liq.

Ikkinchi - keng diapazonli, ovozlar keng joylashgan va tarkibida deyarli hamma ovozlar bor aralash xorlar. Xorning diapazoni uch oktavagacha yetadi. Bu xorlarda ayollar birmuncha yuqori registrda kuylashga odatlangan va bu xorlar keng ijro imkoniyatlariga ega bo'ladi. Ular ovozlarining keng va tor joylashtirilgan variantlarida kuylashlari mumkin. Ma'lumki, xorda yuqori (soprano) ayollar ovozi bo'lmasa, ayollar ko'krak registrda (tabiiy) kuylashga moslashadi va tovushlardan foydalanganda ovozda « ochiqlik» (« oq tovush») paydo bo'ladi.

Ba'zi o'rta ovoz diapazoniga ega xonandalar kuylaganda ovozlarida dag'allik seziladi. Qobiliyatli xonandalar yaxshi ovozga ega bo'lishlari uchun hech qachon zo'riqmasdan, baqirmasdan doimo bir tekis va kuchli tovushda kuylashlari kerak.

Hozirgi davrda xalq xorlari ijodiy faoliyatida xor diapazonini kengaytirish, ovoz madaniyatini o'stirish, yuqori registrda bosh rezonatorlardan foydalanib tovushni «yig'ib» (sal niqobdor qilib) chiqarish tendentsiyasi sezilib bormoqda. Shuningdek, xalq xorlari repertuarining boyishi va kontsert faoliyatining kengayishi ularning vokal strukturasi ancha o'zgartirishlar kiritdi. Professional xorlarda yangi asarni o'rganish jarayonini tezlashtirish uchun xorni to'rt guruxga (partiyaga) bo'lish maqsadga muvofiq ekanligi tajribada tasdiklanmoqda.

Xalq xorlari professional va havaskorlik xorlarga bo'linadi.

Professional xalq xorlari - Havaskorlik xorlari ijodiy yutuqlarga erishish natijasida professional xorlarga aylandi.

Professional xorlarning asosiy ishi – xalq o'rtasida keng kontsert – ijrochilik faoliyati olib borish, o'zlari ijod qilayotgan viloyat, o'lkadagi iste'dodli yosh xonanda, raqqosa va sozandalarga otaliq qilishdir. Professional xalq xorlarining soni taxminan 40 – 50 kishidan iborat bo'lib, odatda ayol xonandalar ko'pchilikni tashkil qilishadi. Professional xalq xorlari o'rganilgan partitura bo'yicha improvizatsiyasiz kuylaydilar.

Xalq xorlarida muntazam ravishda vokal tarbiya ishlari olib boriladi. Ovozni tarbiyalash esa uning yuqori registrda (bosh rezonator bilan) «sal niqobdor» qilib kuylash va ko'krak registrdan bosh registrga o'tishdagi tovushlarni silliqlashga va diapazonning kengayishiga yordam beradi. Xalq xorlarida ovozlarni joylashtirish to'g'risida aniq bir qoida yo'q. Har bir jamoa xorning tarkibiga (ovozlarga) qarab, maxalliy ijro an'alarini xisobga olib joylashtiradi. Ularning diapazoni ham turlicha bo'ladi.

Havaskorlik xalq xorlari : - Bugungi kunda qishloq, rayon va shaharlardagi madaniyat saroylarida yoshlar, talabalar va har –xil milliy jamoalar faol ishlab turibdi.

Keyingi yillarda havaskorlik xalq xorlarida ham partitura bo'yicha improvizatsiyasiz kuylash odat tusiga kirmoqda. Asar nota partiyalarisiz,

raxbarning (yoki tajribali qo'shiqchi) ovozidan o'rganiladi. O'rganilgan qo'shiq sahnada hech qanday improvizatsiyasiz ijro qilinadi.

Havaskorlik xalq xorlarini 20 – 30 kishidan tuzish mumkin. Maxalliy qo'shiqchilik uslubini va ko'p xalq qo'shiqlarini biladigan havaskorlar xorning o'zagini tashkil qiladi.

Ba'zi joylarda yoshlardan xalq xorlari tuzib, ular bilan ishlaganda, mahalliy uslub atrofida o'ralashib qolmay, balki bir necha viloyat qo'shiqchilik an'analaridan ularning ifoda formalaridan ijodiy foydalanib ish ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy xalq xori ijrochiligida yana ikki shakl, ya'ni bolalar xalq xori va musiqa o'quv yurtlarining o'quv xorlari mavjud.

Keyingi yillarda xalq xori ijrochiligiga e'tibor oshmoqda. Xalq xorlarining istiqboli va xalq ijrochiligi muammolari haqida ilmiy – metodik ishlar yaratilmoqda. Professional va havaskorlik xalq xorlarini amaliy boshqarish, ya'ni professional kadrlar tayyorlash maqsadida Madaniyat institutida, Konservatoriyada va Universitetlarda o'quv xorlari tashkil qilingan.

O'quv xorlari o'zlarining asosiy ishlari bilan birga, keng kontsert – ijrochilik faoliyati va xalq qo'shiqlarini to'plash, notaga yozib olish kabi tashkiliy vazifalarni ham olib boradilar.

Shunday qilib xalq xorlari o'z o'lka yoki viloyat qo'shiqchilik an'analarini rivojlantirgan holda, umumxalq xor ijrochiligi madaniyatiga xissa qo'shadilar.

Bolalar xori ijrochilik formalari : - Yosh avlodni mustaqillik ruxida tarbiyalash davlat ahamiyatiga egadir. Shuning uchun ham O'zbekistonni mustaqillikka erishgan ilk kunlaridan boshlab, yoshlarga estetik tarbiya berish masalasiga katta e'tibor berib kelinmoqda.

Maktablar dasturiga madaniyat darsi kiritilishi bilan birga, maktablarda, musiqa maktablarida bolalar havaskorlik xor to'garaklari tuzilib, ular faol ishlay boshladi.

Hozirgi kunda bolalar ijrochiligining yangi – yangi formalari mavjud:

- bolalar xor studiyalari,
- bolalar xor maktablari,
- bolalar xor bilim yurtlari,
- bolalar musiqa maktablar xori.

Xor havaskorligining turli formalari: - Havaskorlik xorlari faoliyatiga, ish tajribasiga va utovchi funktsiyasiga ko'ra:

ommaviy,

boshlang'ich,

yuqori tip,

massiv (qo'shma - o'lkan) xorlarga bo'linadi.

Ommaviy qo'shiq aytish havaskorlik xor ijrochiligining eng oddiy va o'ziga hos shaklidir.

Bayram va dam olish kechalarida, ommaviy sayillarida istirohat bog'lari va stadionlarda ko'pchilik bo'lib (ommaviy) qo'shiq aytish xor havaskorligi tajribasida azaldan ma'lum.

Ommaviy qo'shiq aytish xorlari tabiiy ravishda paydo bo'lib, unda havaskorlik xorlarining boshqa turlariga o'hshagan mahsus, muntazam sistema o'quv mashg'ulotlari va vokal tarbiya ishlari olib borilmaydi, ovozlar ham sinovdan o'tkazilmaydi, balki qanday bo'lsa shundayligicha qo'shiq ijro etilaveradi. Bunday sharoitda tuzilgan xorlar doimiy bo'lmaydi, ya'ni ular o'zgarib turadi. Yig'ilgan kishilar orasida ozmi – ko'pmi qo'shiq aytish malakasiga yoki musiqa savodiga (musiqachi) ega bo'lgan kishilardan bittasi jo'rnavozlikni o'z zimmasiga oladi va kecha o'tguncha xorni boshqaradi.

Jo'r bo'lib qo'shiq aytishni mahsus dirijyor – instruktorlar ham boshqarishi mumkin. Har xil kishilardan iborat bunday xorlar bilan keng tarqalgan ommaviy va xalq qo'shiqlari ijro etiladi. Bunday ko'pchilik bo'lib qo'shiq aytishda qo'shiqning asosiy kuyini ba'zida havaskor xonandalar tomonidan bir oz o'zgartirib (noaniq) aytish hollari ham uchraydi. Ma'lumki,

ko'pchilik bo'lib qo'shiq aytish kishilarga estetik zavq va tetik kayfiyat bag'ishlaydi.

Boshlang'ich ish formasidagi xorlarga - ijro tajribasi kam, lekin mahsus tashkil etilgan, doimiy faoliyat ko'rsatuvchi kollektivlar kiradi.

Shuningdek, mahsus tuzilgan havaskorlik xori qaysi tipda bo'lmasin, u o'zining tashkiliy asoslari va ish printsiplari, xonandalar sostavining doimiyliigi va muntazam ishlashi bilan ko'pchilik bo'lib ommaviy qo'shiq aytish formasidan tubdan farq qiladi.

Havaskorlik xorida ma'lum bir ovoz va ijro madaniyatiga erishish maqsadida keng vokal – xor ishlari olib boriladi.

Boshlang'ich ish formasidagi xorlar madaniyat uylari va musiqa maktablarda tuziladi. Bunday xorlarga birmuncha ovoz diapazoniga va musiqiy qobiliyatga ega bo'lgan barcha xonandalar qabul qilinaveriladi. Boshlang'ich ish formasidagi xorlar keng ijro imkoniyatlariga ega bo'lmaganliklari tufayli ularning repertuari ham murakkab bo'lmaydi. Ular, asosan, ikki, uch ovozli va epizodik to'rt ovozli ashulalarni, kompozitorlarning ommaviy xor asarlari va klassik asarlardan kichik hajmdagi namunalarini ijro etadilar.

Boshlang'ich formadagi xorlarning ijro mahorati, repertuari yuqori tipdagi xorlar qatoriga ko'tarilishi raxbarning malakasiga, tashkilotchiligiga, o'zi va xor ustida ijodiy ishlashiga bog'liqdir. Aksincha, u iste'dodsiz, tajribasiz bo'lsa, xorning vokal – xor texnikasi yaxshi rivojlanmaydi, ish faoliyati muntazam bo'lmaydi, kontsertlari esa o'zlari ishlab turgan korxona yoki muassasa doirasidan tashqari chiqolmaydi. Bunday xorlar ko'p yil davomida faoliyat kechirsalar ham, ular boshlang'ich ish formasidan yuqoriga ko'tarila olmaydilar.

Yuqori tipdagi xorlar - asosan ovozlarni saralash yo'li bilan tuziladi. Bunday xorlarga boshlang'ich ish formasidagi xorning ko'p ovozli va akapella xor asarlarini bemalol ijro eta olish darajasiga ko'tarilgan tajribali kollektivlar kiradi.

Shuningdek, ayrim hollarda yuqori tipdagi xorlarga xorda kuylash tajribasi bo'lmagan, ammo yaxshi ovozga va musiqiy qobiliyatga ega xonandalar ham olinadi. Ular bilan alohida mashg'ulotlar o'tkazilib, asta – sekin asosiy sostavga qo'shiladi.

Yuqori tipdagi xorlarga kiruvchi xonandalar oldiga :

- ohangdor va to'la diapazonli ovozga,
- yaxshi musiqaviy qobiliyatga,
- xorda qo'shiq aytish tajribasiga,
- nota savodiga ega bo'lish kabi talablar qo'yiladi.

Yuqori tipdagi xorlar keng ijro imkoniyatlariga ega bo'ladi. Ularning repertuari esa ko'p ovozli asarlardan tashkil topadi. Havaskorlik xor ijrochiligi tajribasidan ma'lumki, yuqori tipdagi havaskorlik xorlarning ijro mahorati hatto professional xorlar darajasigacha ko'tariladi.

Massiv xorlar - bir necha xor kollektivlarini qo'shib tuziladi. Bunday xorlardagi xonandalar soni bir necha yuz, ayrim hollarda bir necha ming kishiga yetadi.

Massiv xorlar faqat ayrim vaqtlardagina (yirik anjumanlarni o'tkazish munosabati bilan) tuziladi. Odatda, bunday ulkan xorlar ikki, uch yoki to'rt ovozli, unchalik murakkab bo'lmagan asarlarni orkestr jo'rligida (ba'zida akapella uslubida) ijro etiladi. Bunday xorlarning ijrosi mahsus qo'shiqchilik maydonlarida, stadionlarda (ochiq havoda) o'tkaziladi. Bunda ovozlar o'ta jarangdor yangrab, ovoz partiyalarining sifati va soni bir – biriga mutanosib.

Massiv xorlarning yana bir shakli ko'pincha yopiq estrada, kontsert zallarida tantanali kontsertlarni ochish va yopish uchun qo'llaniladi. Bunday massiv xor bir necha (aralash, erkaklar, ayollar va bolalar) jamoalarning qo'shilishidan tashkil topib, undagi xonandalar soni 200 – 300 kishini tashkil qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, massiv xorlarda teng hamohanglikka erishilmasa ham xor ijrochiligining bu turini xalq o'rtasida keng qo'llash alohida ahamiyatga ega.

Ovoz apparatining tuzilishi .

Insonning ovoz apparati o'ziga hos murakkab «musiqa asbobi» bo'lib, u o'zining rang – barang tembr boyligi, nixoyatda nozik musiqa ifodalash hususiyatlariga egaligi bilan hamma musiqa asboblardan ustun turadi. Chunki kishi ovozi kuy va so'zni organik payvandlash natijasida musiqiy nutqning asl ma'nosini ochib beradi. Bu borada inson ovozigaga teng keladigan birorta ham musiqa asbobi yo'q. Shuning uchun ham inson ovozi ko'pincha « gapiruvchi musiqa asbobi» deb ham yuritiladi.

II.Bob.Xor haqida tushuncha.

Xor grekcha “xoros” – “yig’ilish” ma’nosini bildiradi. Qadimiy Grek teatr spektakllarida qatnashuvchi ashulachilar “xorvetlar” nomi bilan yuritilgan. Xor ijodiy uyushgan jamoa bo’lib, u ma’lum ovozga ega bo’lgan ijrochi xonandalardan tashkil topadi. Uning harakterli belgilaridan biri – bu xordan yakka tembrlarning qo’shilishidan hosil bo’ladigan o’ziga hos tembrdir. Demak, xor deb mahsus tashkil qilingan, vokal – xor texnikasiga, badiiy – ifoda vositalariga ega bo’lgan va shu vositalar orqali ijro qilinadigan asarning mazmunini eshituvchilarga yetkazib bera oladigan jamoani atash mumkin.

Insonning ovoz apparati o’ziga hos murakkab “musiqa asbobi” bo’lib u o’zining rang-barang tembr boyligi, nixoyatda musiqa ifodalash hususiyatlarga egaligi bilan hamma musiqa asboblardan ustun turadi. Chunki kishi ovozi kuy va so’zni o’rganib payvandlash natijasida musiqiy nutqni asl ma’nosini ochib beradi. Bu borada inson ovoziga teng keladigan birorta ham musiqa asbobi yo’q. Shuning uchun ham inson ovozi ko’pincha “Gapiruvchi musiqa asbobi” deb ham yuritiladi.

Ovoz apparati maqom, xiqildoq, xalqum, nafas ravoni, ovoz pardalari (bog’lamlari), rezonatorlar va har xil mashqlardan iborat.

Xiqildoq – ovoz paydo qilish apparati vazifasini bajaradi. Xiqildoq uzuksimon, qalqonsimon va ikkita shoxsimon (uch burchak) to’g’aylar iborat bo’ladi. Ular muayyan musqullar yordamida oldinda va orqada harakat qiladi. Odam ovozi juft va to’q xiqildoq to’g’aylari pardalari musqullari yordamida bir-biri bilan birikishidan hosil bo’ladi. Nafas orqali chiqayotgan havo xiqildoqdagi to’g’aylar orasida tortilgan ovoz pardalariga urilib tebratadi va ovoz chiqaradi.

Tovushning baland – pastligi, yo’g’on – ingichkaligi xiqildoq bo’shlig’ining katta – kichikligiga pardalarning tarangligiga, ularning uzunligi va qalinligiga, til, xalqum – xiqildoq musqullarining qisqarishiga bog’liqdir. Ovoz pardalari lotincha “hid vocal” deyiladi. Bu pardalar yuqori va pastda

joylashgan bo'lib, yuqoridagisi soxta, pastdagisi esa chin ovoz pardasi deyiladi.

Inson erkin nafas olib, nafas chiqarayotganda ovoz chiqmaydi, chunki bunday vaqtda ovoz ravon erkin holda bo'lib, ovoz pardalari taranglashmagan, deyarli harakatda bo'lmaydi. Ovoz ravonligini to'g'ri boshlashi bilan tovush chiqa boshlaydi. Xorda qo'shiq aytishga moyil va qo'shiq aytish qobiliyatiga, ya'ni ma'lum ovoz balandligi (diapazoniga), yoqimli tembrda, tiniq, lirik yoki dramatik, kichik yoki katta kuchlanishga ega bo'lgan ohangdosh ovozlar xorga monand xonanda ovozlar (yoki xor ovozlari) hisoblanadi.

Xor ovozlari guruxlarga bo'linadi:

Bolalar ovozi (diskant, al't).

Ayollar ovozi (soprano, metso soprano, al't, kontral't).

Erkaklar ovozi (tenor, bariton, bas).

Bolalar ovozi (diskant) yoki (soprano) va (al't)ga bo'linadi.

Diskant (soprano) – bolalarning yuqori ovozi bo'lib, uning qamrovi birinchi oktava “do” dan, ikkinchi oqtava “fa-sol” gacha ko'tariladi. Diskant yengil, o'zgaruvchan, yumshoq yangraydigan ovoz bo'lgani uchun har xil kuy va ohanglarni juda ta'sirchan ijro eta oladi.

Al't – bolalarning pastgi ovozi. U kuchli va birmuncha yo'g'on, jarangdor, tembrli bo'lishi bilan birga, ba'zi hollarda mayin harakterga ega ham bo'ladi. Al't tovushining diapazoni kichik oqtava “sol-lya”dan ikkinchi oktava “re-mi”gacha bo'ladi.

Xor san'atining ahamiyati va roli.

Musiqqa janrlari ichida eng demokratik va ommaviy hususiyatga ega bo'lgan tur - bu xor san'atidir. U kishilarimizning kundalik hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularni g'oyaviy – estetik jihatdan tarbiyalaydi.

Mashhur musiqa nazariyotchisi, faylasuf, bastakor va davrning asoschilaridan biri B.Asafev fikricha, xor san'ati musiqani tushuna bilish vositasidir.

Xor san'ati ommani milliy ruxda tarbiyalash bilan birga kishilarni xalq qo'shiqlari ijodiyoti durdonalari, o'zbek, rus va chet el klassik vokal – xor asarlari namunalari bilan tanishtiradi, ularning ma'naviy dun'yosini boyitadi.

Xor san'ati ommani musiqaviy tarbiyalashda kishilarni loqayd eshituvchi emas, balki faol qatnashchilarga aylantiradi. Ba'zi bir sotsiologik kuzatishlarga qaraganda, havaskorlik xor kollektivlarida astoydil qatnashgan kishilar hayotda ham, ishlab chiqarishda ham serg'ayrat bo'ladilar.

Xor shunday bir san'atki, unda adabiy va musiqiy ijodiyot o'zaro uyg'unlashib, yahlit badiiy obraz yaratiladi. Bu san'at doimo xalq qo'shiqchilik ijodiyoti bilan bog'liq bo'lib, xuso'san milliy musiqa madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o'ynab kelgan.

O'tmishda professional xor ijrochiligiga ega bo'lmagan qator qardosh respublikalarda yangi xor san'ati o'ziga hos yo'llar bilan shakllanib kelgan va ularning ijrochiligi yangicha - zamon talabiga mos yo'l bilan rivojlangan.

Professional va havaskorlik xorlari bir – birlaridan tashkiliy va ishlash printsiplari bilan farq qilsa – da, ular badiiy va texnik jihatdan bir birlariga juda yaqin turadilar, bir – birlari bilan bog'langan holda rivojlanadilar va o'zaro ijobiy ta'sirda bo'ladilar.

Har ikkala – professional hamda havaskorlik xor san'ati umumiy xor madaniyatini tashkil qilib, ular o'quvchilarni estetik tarbiyalash vazifasini o'taydi.

Professional xorlar havaskorlik xorlari ustidan olib boradigan «otaliq» ishlari havaskor xonandalarning ijrochilik mahoratlarini chuqurlashtirishga, repertuarining boyishiga, umuman, xorning madaniy saviyasini oshirishga yordam beradi. O'z navbatida, havaskorlik xorlari professional kollektivlarga xushovoz iqtidorli yoshlarni yetishtirib beradi.

San'at bayramlarida, ijodiy kechalarda professional xorlar bilan havaskorlik xorlarining qo'shilib ishtirok etishi bugungi kunda an'anaga aylanib qolgan. Mana shunday ijodiy hamkorlik professional va havaskorlik kollektivlarini bir – birlariga yaqinlashtiradi.

Hozirgi kunda ko'pgina havaskorlik xorlari o'z ijro mahoratlari, repertuari bilan professional kollektivlarga yaqin turadi. Shunday qilib, xor san'ati keng tarqalgan va ko'p turlarga ega bo'lgan janr.

Ta'kidlaganimizdek, musiqiy tarbiya xisoblanadi, xor san'ati esa musiqa madaniyatining tarkibiy va eng xalqchil qismini tashkil qiladi. Shuning uchun ham, xor san'atini rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda.

Xor madaniyatining rivojlanishi.

Xor san'ati uzoq tarixga egadir. Qadim zamonlardan beri xalqlar orzu – umidlari, xis - tuyg'ularini qo'shiq aytish, pantomima (badan harakati) qilish kabi vositalar bilan ifodalab kelganlar.

Ko'pchilik bo'lib qo'shiq aytish deyarli hamma xalqlarning mehnat faoliyati, an'anaviy marosimlari, qolaversa, butun turmush hayoti bilan doimo bog'liq bo'lib kelgan.

Ma'lumki, an'anaviy marosim qo'shiqlari, u yoki bu marosim munosabati bilan xalq tomonidan to'qilgan, xor bo'lib ijro etilgan.

G'arb davlatlarida, shuningdek, Rossiyada xalq qo'shiqlari bilan bir qatorda keyinchalik cherkovda aytiladigan professional xor ijrochiligi paydo bo'ladi. Qadimiy cherkov qo'shiqchiligi, asosan, unison (bir ovozli yoki oqtava) bo'lib, X asrlarda ikki ovozli qo'shiqlar paydo bo'ladi.

Uyg'onish davrida ko'p ovozli xor ijrochiligi rivojlandi. Xuso'san, XV – XVI asrlarda DJ. Palestrina, O Lasso, K. Janeken, J.Depre kabi polifonist

kompozitorlar yashab ijod qilgan davrda xor san'atining akapella ijrochilik uslubi yanada ravnaq topdi.

Professional xor qo'shiqchiligi vaqt o'tishi bilan cherkovdan tashqari podshox, knyaz, pomeshiklar saroylarida ham keng tarqaldi.

Saroylardagi professional xorlar o'yin – kulgi tomoshalarida hizmat qilish uchun saqlangan. Bu esa yuqorida qayd qilingan ba'zi xalqlar xor san'atining rivojlanishiga keyinchalik ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Keyinchalik Bax, Gendel, Betxoven, Glyuk, Motsart, Verdi, Bize, romantik kompozitorlardan Shubert, Shuman, Mendel'son, rus kompozitorlaridan Glinka, Rimskiy – Korsakov, Musorgskiy, Chaykovskiy, Borodin, Kyui, Taneev va boshqalar o'z ijodlari bilan xor san'atini yuqori pog'onalarga ko'tardilar.

Xor turlari

Xor bu vokal musiqani cholg'u asboblari jo'rligida yoki jo'rsiz (akopella) ijro etuvchi xonandalar kollektivi. "Xor" atamasi yunoncha "xoros" so'zidan olinib "to'da, yig'in" ma'nosini bildiradi. Ko'p vaqt xor opera, oratoriya, kontata ba'zan simfoniya qo'llanilgan. Musiqa amaliyoti davomida xorning har xil turlari va ko'rinishlari paydo bo'lgan.

Xor turi xorning to'zilishiga qarab aniqlanadi. Turiga qarab bir yoki aralash bo'lishi mumkin, bir xildagi xorlarga alohida erkaklar xori, ayollar xor, bolalar xori kiradi. Aralash xorga bolalar bilan ayollar xori, ayol va erkaklar xori kiradi. Xor ko'rinishi xorni tashkil qiluvchi mustaqil xor partiyalarining soni bilan belgilanadi. Ikki ovozli xor uch, to'rt ovozli xor va ho kazo. Har bir xor partiyasi ma'lum bir joyda 2 – 3 ovozlariga bo'linishi mumkin. Bunday bo'linish divizi deyiladi. Aralash xor to'rt ovozdan iborat, lekin bundan ham ko'p ovozli bo'lishi mumkin. Divizi tufayli 6 yoki 12 ovozga bo'linadi.

Xor kollektivini tashkil etish shartlaridan biri har bir xor partiyasini ovozlar bilan to'g'ri ta'minlashdir. Diopazon, tembr va ovoz kuchi jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan ashullachilar guruxiga xor partiyasi deyiladi.

Xor to'rtta asosiy partiyalarga taqsimlanadi – soprano va al't ayollar ovozi, tenor va bas erkaklar ovozi. Xor partiyalarining tarkibiga baland va past ovoz gruppalari kiradi. Xor partiyalarining baland ovozlari birinchi (I) past ovozlari esa (II) ikkinchi deb yuritiladi. I – ga lirik ovozlari, II – ga dramatik ovozlari kiradi.

Soprano partiyasi.	
Soprano I	Soprano II
Lirik – kolorotli	Lirik – dramatic
Lirik	Dramatik

Al't partiyasi.	
Al't I	Al't II
Metso – soprano	Dramatik metso – soprano
Lirik metso – soprano	Kontral'to

Tenor partiyasi.	
Tenor I	Tenor II
Tenor – al'tino	Dramatik tenor
Lirik tenor	Dramatik tenor

Bas partiyasi.	
Bas I	Bas II
Lirik bariton	Markaziy bas
Dramatik bariton	Oktavalar

Xorda lirik va dramatik ovozlarning kuylanishi xor partiyasining rang-barang tembr xususiyatlarini yuzaga keltiradi va badiiy ifoda imkoniyatlarini to'liq namoyon qiladi.

Bolalar xori.

Bolalar xori diskontlar (soprano) va al't partiyalaridan iborat, ular yoshlariga ko'ra uch guruxga bo'linadi.

1. Kichik xor 7 – 10 yosh.
2. O'rta xor 11 – 13 yosh.
3. O'smirlar yoki katta xor 14 – 18 yosh.

O'smirlar xori (ikki ovozli) faqat katta yoshda o'smir bolalardan tashkil topadi. Maktabda katta gruppada aralash yoshlar xorini qilish mumkin (soprano, al't va o'smir bolalar).

Boshlang'ich sinflarda kichik gurux xorini qilish mumkin. Mahsus bilim kollejlari katta o'smir bolalar xorini tashkil qilish mumkin. To'rt ovozli aralash turlaridan biri o'g'il bolalar va o'smirlar. (tenor va baslar)dan tashkil topishi mumkin.

Aralash xor.

Musiqada amaliyotida to'rt xor partiyasidan iborat.

Xorning son jihatidan tarkibi o'z son jihatidan tarkibi bo'yicha xor kollektivlari kichik, o'rta va katta xor bo'lishi mumkin.

Kichik xor 16 – 30 kishidan oshmaydi.

O'rta xor 30 – 60 gacha bo'lishi mumkin.

Katta xot 80 120 kishidan tashkil topadi.

Xorni sahnada joylashtirish uchun mahsus zinapoyaga o'xshash moslamalardan foydalaniladi. Xor partiyalarini o'z o'rniga joylashtirish uchun sozlanishiga, turlicha tur va tipdagi xorning uyg'un qo'shma sadosiga erishishda katta ahamiyatga ega.

Xorning an'anaviy joylashtirilishi.

Bunday joylashtirish ko'pincha erkaklar va ayollar ovozining bir-biri bilan oktavani qo'shiluvchi opera xorlariga harakterlidir.

Estrada xor joylanishining sxemasi yoysimon yoki to'g'ri chiziq holiday bo'lishi mumkin. Jo'rsiz ijrochilik hollarida kollektivni yoysimon shaklda joylashtirish ma'qul bo'ladi, chunki sado, tovush fokusida to'planishi

kerak. to'g'ri chiziq holiday joylashtirish ko'pincha yaxshi ovoz oqustikasiga ega bo'lgan katta zallarda, shuningdek xor asarlarini orkestr jo'rligida ijro etish hollarida qo'llaniladi.

Tenorlar

Sapranolar

Baslar

Al'tlar

Orkestr

Bolalar xorida ovozlarning quyidagicha joylanishi keng tarqalgan.

Soprano I Soprano II Al't I

Akustik sharoitni hisobga olgan holda, xorni aniq va doimiy joylashtirish printsiipi xor sadolanishga yaxshi imkon tug'diruvchi muhim omillardir. Ovoz kuchiga uning intonatsiyasining turg'unlariga ko'ra, xonandani xor partiyasida egallaydigan o'rinni aniqlash va qat'iylashtirish lozim. Bunday maqsad xorning sozlanishini saqlash, tembr birligiga, partiyada ansambl birligiga erishishga yordam beradi.

Ovoz apparati.

Tovush hosil bo'lishi ovoz apparatining harakati natijasida sodir bo'ladi. Bu apparat uch qismdan iborat.

1. Nafas organlari (o'pka, bronx, traxeya) tamoqning nafas yo'li.
2. Xiqqildoq (ovoz pardalari joylashgan qismi).
3. Rezonatorlar (yutqli og'iz va burun).

Ovoz apparatining har bir qismi bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Tovush hosil qilish uchun o'pkadan chiqayotgan xavo oqimi bronx traxeya orqali tomoqqa keladi va u yerda ovoz pardalari to'sig'iga uchraydi. Havo bosimi ta'sirida ovoz pardalari harakatga kiradi, ularning takroriy ochilib yopilishi va tebranishi natijasida havo to'lqinlari tovush hosil qiladi.

Tovush hosil qilish bilan bog'liq bo'lmagan holdagi odamdagi nafas olish jarayonida ovoz pardalari sokin holatda bo'ladi, havo uch burchak

shaklidagi ovoz teshigidan erkin o'tadi. Tovush hosil bo'lishida ovoz teshigi torayadi.

Bolalar ovozi ko'krak aralash va bosh registrlaridan iborat. Bolalar ovozi uchun bosh qismining baland rezonanslanishi hosdir. Bolalar ovoz apparatining tuzilish va rivojlanishi hususiyatlariga qarab har bir yosh gruppasi individual registrdagi ovoz to'zilishiga ega. Kichik gurux bolalari (7 dan 10 yoshgacha) ovozining diapazoni kichik bo'lib yengil fal'tset (bosh registrdagi) sadosi bilan ajratib turadi.

O'rta yoshdagi bolalar ovozlarida (11 – 13 yosh) ayniqsa, o'g'il bolalarda ko'proq registrdagi tovush elementlari paydo bo'lib, diapazon kengayadi. Bu yoshdagi bolalar ovozining diapazonida uchala registr (bosh aralash ko'krak) ajralib turadi va kuylash vaqtida mikst (aralash) registri tovushlari ishlatiladi.

Katta gurux yoshidagi bolalar ovozida (14 – 16 yoshlarda) tembr aniqligi, voyaga yetgan ovoz elementlari paydo bo'ladi. Lekin amalda mikst (aralash) registri tovushlari saqlanadi.

Ovozning registr to'zilishi:

Kichik oktava si-dan birinchi oktava fa-gacha past.

Birinchi oktava sol-dan ikkinchi oktava fa-gacha o'rta.

Ikkinchi oktava sol-dan uchinchi oktava do-gacha yuqori.

Bolalar ovozida:

Diskant (soprano) birinchi oktava mi-bemol, fa.

Fal'tsetga o'tishda esa ikkinchi oktava mi-bemol, fa.

Al't tovushlar birinchi oktava mi-bemol, fa yuqorisi esa ikkinchi oktava do-diez, mi-bemol.

Vokal pedagogikasining birdan-bir vazifasi xonanda ovozi registrlarini tekkislab, bir xil sadolashini ta'minlashdir. Turli registrdagi ovoz sadosining hususiyati tessitura tushunchasi bilan bog'liq. Tessitura ovoz, xor partiyasi yoki diapazonning bir qismi bo'lib, asarda eng ko'p qo'llaniladigan tovushlar hisoblanadi.

Tessitura past, o'rta, yuqori bo'lishi mumkin. Ovoz erkin va tabiiy yuzaga keluvchi o'rta tessitura qulay hisoblanadi. Yuqori va past tessituralar xonandalar uchun qiyinchilik tug'diradi, chunki uzoq vaqt kuylash davomida ortiqcha kuch sarflanadi va bu esa ovozni charchatadi.

II.1. Professional xor san'atining rivojlanishi.

O'zbekistonda professional xor san'ati eng kech rivojlana boshlagan san'at turlaridan biridir. Chunki dastlabki yillarda professional xor san'atini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yo'q edi.

Xalqqa manzur bo'ladigan, uni sevib ijro etadigan zamonaviy ko'p ovozli asarlar yaratish, o'zbek xalq qo'shiqlarini qayta ishlash uchun kerakli kompozitsiya vositalarini topish zarur edi. San'atni xalqqa va xalqni san'atga yaqinlashmog'i uchun mehnatkash ommaning umumiy ta'lim va madaniy saviyasini oshirish haqidagi ko'rsatmalariga amal qilib, maorif va madaniyat sohasida qator muhim tadbirlar o'tkazdi va bu ishlar asta-sekin amalga osha bordi. O'sha yillarda shunday muhim masalalarning bajarila borishida qator rus musiqa san'ati arboblari V.Uspenskiy, Ye. Romanovskaya, N.Mironov, R.Glier, S. Vasilenko, A.Kozlovskiy va o'zbek professional musiqachilarning xissasi katta.

Professional xor ijodi va ijrochiligining oddiy formalari musiqali dramalarda uchraydi. «Farxod va Shirin», «Gulsara» bularda ikki ovozli xor qo'llanilgan.

1936 yilda Yangi tuzilgan O'zbekiston Davlat filarmoniyasi qoshida xor kapellasi tashkil qilindi. Xordagi xonandalarning ko'pi o'zbeklar bo'lib, ular, asosan havaskorlik to'garaklaridan chaqirilgan edi. Xonandalarga musiqa savodi, sol'fedjio va ovozlarni yo'lga qo'yish (vokal) bo'yicha kuchaytirilgan mashg'ulotlar utilar edi.

1934-1937 yillar davomida Moskva konservatoriyasida yangi tashkil qilingan opera studiyasining har xil bo'limlarida O'zbekistondan kelgan ko'pgina iste'dodli yoshlar ham ukidi. Karim Zoqirov, Gulom Abdurahmonov, Mihail va Morduhay Davidovlar, Muxtor Ashrafiy, Sora Samandarova, Fazliddin Shamsutdinov, Mardon Nasimov, Nasim Xoshimov, Boboraxim Mirzaev, Salima Xujaeva, Muxiddin Kori-Yoqubov, Shonazar Sohibov, David Mullaqandov, Mutal Burhonov, Olim Halimov, Sulaymon

Yudakov, Bahrom Inoyatov va boshqalar shu studiyada tahsil ko`rib, kelgusida tanilgan xonanda, sozanda, dirijyor va kompozitor bo`lib yetishdilar.

Muziqali drama janrining hamda yosh milliy kompozitor va bastakorlarning yetishib chiqishi respublikada milliy opera janrining tug`ilishiga sabab bo`ldi. Yosh o`zbek kompozitorlarining yetuk rus kompozitorlari bilan ijodiy hamkorligi boshlangan edi. Shunday hamkorlik natijasida 1939 yilda S.Vasilenko va M. Ashrafiyning birinchi o`zbek milliy operasi «Bo`ron» yaratildi. 1940 yilda ularning «Ulug` kanal» operasi, shu yilning o`zida R.Glier va T.Sodikovlar hamkorligida «Layli va Majnun» operalari yaratildi.

Ulug` Vatan urishi yillari ijodiy kollektivlar tomonidan kontsert-ijrochilik ishlari jonlantirildi. Bu ishda Toshkentga evakuatsiya qilingan Leningrad konservatoriyasi o`qituvchilari va ayrim taniqli musiqachilarning yordami kattadir. Ular katta kontsert – ijrochilik ishlari olib bordilar, shu yerli xalqni rus, va chet el klassik musiqa durdonalari bilan tanishtirdilar. Shuningdek, ular o`zbek musiqasini o`rganish ustida olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida ham faol qatnashdilar. Kompozitor va bastakorlar ijodida harbiy – vatanparvarlik mavzusi asosida o`rin egalladi. Urushning birinchi kunlaridayoq G. Qodirovning «Botir askar», D.Zoqirovning «Qasos ol», M. Burxonovning «Jangchi qo`shig`i», M.Ashrafiyning «Ulug` komandon», S.Yudakovning «Qonga qon, jonga jon», Yu.Rajabiyning «Vatan», T.Jalilovning «Uch komandir», «Komsomol so`zi», «Aziz Vatan», U.Tolmasovning «Tankchi qasami» kabi xor qo`shiqlari yozildi. Shu yillarda yirik formaning «Farxadstroy», S. Yudakovning «G`alaba» tantatalari, B.Arapov va A. Kozlovskiyning «Jaloliddin» kabi yirik shakldagi asarlari shular jumlasidandir. Ikkinchi jaxon urishi yillarida A.Kozlovskiyning «Ulug`bek», O.Chishkoning «Mahmud Torobiy» operalari yozildi.

1944 yilda « O'zbekistonda san'atni yanada rivojlantirish tadbirlari haqida» qaror chiqdi. Qarorga binoan, musiqa – xor san'atini ommalashtirish, uni propaganda qilish ishlarini jonlantirish zarur edi.

Shu davrdan boshlab opera – xor madaniyati ham rivojlana bordi, urushdan keyingi yillarda qator vokal simfonik asarlar yozildi. M.Ashrafiyning « O'zbekiston», M.Levievning « Yorqin yo'l», « Oq oltin» kantatalari dunyoga keldi. 1950 yillar boshlarida S. Yudakovning « Mirzacho'l» syuitasi va M. Ashrafiyning « Baxt qo'shig'i » kantatalari yozildi. Bu asar Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. O'zbek xor musiqasida ko'p ovozlilik janrining rivojlanishi xor madaniyatining o'sayotganligidan dalolat berar edi.

10 yil davomida kompozitorlar tomonidan kantatalar, oratoriya, syuita, oda, ballada, jo'rsiz xor asarlari va ajoyib ommaviy xor qo'shiqlari yaratildi. Shulardan S.Yudakovning «G'alaba», «Mening Vatanim», «Muborakbod», « To'yyona» kantatalari, «Mirzacho'l syuitasi», M.Ashrafiyning «O'zbekiston» va «Baxt qo'shig'i» kantatalari, I.Hamroevning «O'zbekiston xotin -qizlariga» kantatasi, A.Xalimovning « Qorag'alpog'iston», S Boboevning «Paxta bayrami» kantatalari Ik.Akbarovning «Toshkentnoma» oratoriyasi va «Hamsa» kantatasi, M.Burxonovning «Alisher Navoiyga qasida» si, M.Nasimovning «Dilbarim» syuitasi,D.Zoqirov va B.Umidjonovning «Asrim sadosi» kantatalari va boshqalar misol qilib keltirish mumkin. Bu asarlar xor janrini boyitdi, professional xor san'atini rivojlantirdi.

M.Burxonovning «Yorlarim», «Go'zal qizga», « Sayra», « Zarragul», «Bibigul» qayta ishlagan akapella xor asarlari.A.Muhammedovning «Yashna xur Vatan», S.Boboevning « Chaman ichra», «Yali - yali», «Endi sendek» xalq ashulalari asosida yaratgan «Qoyilman» kabi jo'rsiz xor asarlari. Shuningdek, xormeyster S.Valenkovning A.Muhammedov musiqasiga yozgan «Alla» va V.Knyazev qayta ishlagan « Gulpak», jo'rsiz xorlari ham o'quv xorlari repertuaridan o'rin olgan edi.

60 – yillardan boshlab yosh xormeyster B.Umidjonov tomonidan o'zbek, tojik, qirgiz, va boshqa xalq qo'shiqlari «Diliman», « Gar namedoni

bidon», «Yapuray», « Qorasoch», « Ililla - yor», « Og'a doram», «Gall bari», « Xurshidi jaxon galdi», « Komuzchi», « Chamanda gul» qayta ishlangan va original «Dilbarume» xor syuitasi yozilgan.

Ular radio va televidenie xori, o'quv xorlari, hatto havaskorlik xorlari orqali ijro qilinib, xalq o'rtasida keng tarqaldi.

Keyingi 10 - yilliklarda S.Boboev «Tanovor», « Bog` sayliga», «Galdir» kabi klassik ashulalar asosida xorlar yaratdi. M.Burxonov o'zbek, afg'on, eron, qoraqalpoq xalq qo'shiqlarini qayta ishladi «Ayriliq», «Chashmi siyoh». akapella janri rivojlandi va shakllandi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, professional xor ijrochilik san'ati O'zbekistonda o'z milliyligini yo'qotmasdan rivojlandi.

XOR

Xor san'ati bir tamondan ijrochilikning eng ommaviy shakli bo'lsa, boshqa tamondan aksariyat hislatlari bilan o'ziga hos individual harakterga ega. Ijrochilik madaniyati, kuylash usuli, repertuari, xor raxbarining qobiliyati kabi individual harakterdagi hislatlar xor kollektivining ijodiy "Qiyofa"sini boshqasidan ajratib turadi.

Xor ijrochiligi musiqa san'ati turi sifatida ikki – akademik va xalq ijrochiligi yo'nalishlarida rivojlanib kelmoqda. Kuylash usuli, tovush hosil qilish harakteri, ovozlarning tembr turlanishi ijrochilik texnikasi usullari va ifodalash vositalarining imkoniyatlariga qarab xor ijrochilik uslubi aniqlanadi.

Akademik xorlarning asosiy vazifasi chet el klassik asarlarini va har bir millatni milliy klassik asarlarini eng yaxshi namunalarini ijro etish va targ'ib qilishdan iborat. Bu asarlar ijroning akademik uslubiga to'g'ri keladi va akademik xor xonandaligi maktabi hisoblanadi.

Asarlar dirijyor boshchiligida va fortepiano jurligida ijro etiladi. Kuylash usuli niqobdor holda bo'lib, tovush rovon, ovozlari xor partiyalariga aniq bo'lingan bo'ladi. Akademik yo'nalishidagi xorlarga – O'zbekiston Davlat Filarmoniya Xor, Toshkent Davlat Konservatoriyasini Akademik Xori kiradi va boshqa o'quv yurtlarida tashkil topgan xorlar ham kiradi.

Xalq xorlarining asosiy vazifasi ilgari yaratilgan xalq qo'shiqlarini zamonaviy ruxda qayta ishlangan eng yuksak namunalarini, shuningdek o'zbek bastakorlarining xalq xori uchun yaratilgan oreginal asarlarini targ'ib qilishdan iborat.

Xalq xorlari dirijyorsiz xalq cholg'u asboblari jo'rligida qo'shiq ijro etiladi. Kuylash usuli ochiq ovozni, nutqqa yaqin va xalq ijrochilik an'analariga asoslangan ovozlar partiyalarga aniq bo'linmagan bo'ladi. Ko'pincha xalq xori raqs ishtiroqida ijro etiladi. Bo'larga O'zbekiston Telvideniya va Radiosi qoshidagi milliy xor va hozirgi kunda juda ko'p an'anaviy guruxlar, Filarmoniyalardagi maqom guruxlari, O'zbek navo guruxlari va o'quv yurtlarda an'anaviy qo'shiqchilik bo'limlarda tuzilgan dastalar juda ko'p. Hozirgi kunda maktab qoshida ham kichikroq dastalar o'rin olayapdi.

Xor inson hissiyotiga kuchli ta'sir eta olish bilan birga o'quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va axloqiy – g'oyaviy tarbiyalashning muhim vositasidir. Xorda kuylash – musiqaviy tarbiyaning jamoa faoliyati sifatida o'qtuvchining bevosita ishtiroqi bilan amalga oshiriladi. Xorda kuylash murakkab psihologik va fiziologik jarayondir. Bunda bosh miyadagi nerv hujayralari ham faol ishga tushadi. U qo'shiq kuylash davomida o'quvchilarda ijobiy hisning, tuyg'ularning faolligini ta'minlaydi. Hamda o'quvchilarning samarali ishlashiga sharoit yaratadi, shuningdek kuylashda bolalarning ko'proq qismi, tovush hosil qiluvchi a'zolari artikulyatsiya va nafas organlari o'zaro bog'liq holda faol ishtirok etadi.

Qo'shiqning tarbiyaviy ta'sirini oshirish uchun o'quvchilarning yoshi musiqaviy qobiliyati va ovozi bo'lishi kerak. Xorda kuylash – bu jamoa bo'lib ijro etishni bir turidir. Musiqa maktab o'quvchilarini ashulla, musiqa madaniyatini rivojlantirishga yordam beradi, o'quvchilarni ichki dunyosini tarbiyalaydi, dunyo qarashini tiklanishida va insoniylik fazilatlarini o'stirishda katta ahamiyatga ega. Asarni aniq va emotsional musiqiy obrazini chuqur

sezish lozim. Bunaqa ijro etilish vokal – xor malakalarini talab qiladi, bu malakalarini tiklash musiqa asar tarkibini yoritishga yordam beradi. Kuylashni o'rganishda, biz kuyni kuylab tozaligiga e'tibor berishdan tashqari, bolalarda badiiy didini rivojlanishiga yordam beramiz. Bolalarda kuy haqida mustaqil fikr yuritishni o'rgatamiz, ijro etilishi, kuy ustida ishlashni, yodlash, o'qituvchiga tahlil qilish – bo'lar hammasi qiziqarli protsess sekin asta yuqorilayotganga o'xshaydi. O'qituvchi o'quvchilarga oddiy kichik ashula ustida ham ko'p ishlash lozimligini uqtiradi. Xor bilan kuylash – o'quvchilar uchun eng yaxshi usul, ovozni o'quvchilarda tarbiyalash mumkin. Ovozni to'g'ri rivojlantirish, to'g'ri kuylash yoshiga qarab bu ovoz apparatini sog'lom bo'lishiga yordam beradi.

O'qituvchi xor bilan ishlashda xor tarbiya vositasi ekanligini o'quvchilarda ashula aytish metodlarini, bolalar ovozini ahamiyatini, xor bilan ishlash yo'nalishlarini va to'g'ri kuy tanlashda adashmasligi lozim.

Musiqa darsida o'qituvchi vokal – xor malakalariga to'g'ri yo'nalishi kerak. Xor bilan kuylash xalqimizning eng yaxshi ko'rgan, san'atidan biri va qadim-qadimga borib taqaladi.

Mavzu va harakter jihatdan mos bo'lgan asarlarni tanlash tavsiya qilinadi. Rejada berilgan qo'shiqlarni sur'ati, harakteri kuylashga qulayligi va mazmuni jihatdan tabaqalashtirishga ma'lum sistemaga tushirishga harakat qilinadi. Xorda kuylash uchun mo'ljallangan qo'shiqlar repertuaridan Ona vatanga, boy tabiatimizga, xalqimiz mehnatiga va hayoti bilan bog'langan turli bayramlarga, ahloq odobga keng o'rin beriladi. Tanlangan qo'shiqlar xilma-xil janrda bo'lib, ular ko'proq milliy musiqamizdagi lirik qo'shiqlar, hazil mutoyiba tarzidagi qo'shiqlar, bolalar xalq qo'shiqlari, bolalar o'yinlarini o'ynash uchun mos keladigan kuy – qo'shiqlar, marsh va val's kuylarini hamda milliy xalq qo'shiqlari va marosim qo'shiqlarini o'z ichiga oladi. Shuningdek qardosh va chet el bastakorlari asarlari, chet el bastakorlari xalq qo'shiqlaridan ham kiritiladi.

Bu qo'shiqlarning g'oyaviy axloqiy va estetik mazmunini o'quvchilarga yaxshi singdiriladi. Ahloqiy suxbatlar, savol – javoblar kabi usullardan ijodiy foydalaniladi.

Bolalar ovozini rivojlantirish va tarbiyalash uchun o'qituvchi ularni ovozlarini diapozonini bilish lozim. Olti yashar bolada diapozon uncha keng emas, bu yoshda ovoz aparati tiklangan bo'lmaydi. Birinchi sinf o'quvchisini diopozoni mi – sol, fa – lya bo'ladi. Shuning uchun uncha qiyin bo'lmagan, diopozoniga mos asarlar berilishi lozim.

Masalan: A.Mansurov musiqasi “Quvnoq bolalar” A.Berlin “Laylak qor”. Bolalar uchun yozilgan kuylar “Quyuncha”, “Kapalak”, “Bulbulcha”, xalq kuylaridan. “Yor-yor”, “Lapar”, quloqlarga yoqadigan va tez esda qoladigan yorqin va quvnoq kuylar ijro etiladi.

Ikkinchi sinf o'quvchilarini diopozoni mi – siga to'g'ri keladi. Bu diopozon ko'proq eshitish uchun moslangan bo'ladi. Lekin shuning bilan ovozlari qisqa va ingichka bo'ladi. Shuning uchun darslarda bolalarni majburlamay yorqin va yengil ovozga erishish mumkin.

Uchinchi sinfda ovoz apparati tez tiklanadi. Bolalarni tez rivojlanishiga bog'liq bu jarayon. Diopozoni do – re (mi) boradi. Ovoz dinamikasi mp va mf bo'lishi kerak. Bu dinamikada shu yoshdagi bolalar ovozi yorqin va tiniq ijro etishga moslashadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ovoz apparati tiklanish jarayoni bo'lib o'tadi. Shuning uchun bolalar ovozini rivojlanishiga musiqa o'qituvchisi tinmay ahamiyat berishi lozim. Bu yoshdagi bolalarda tembr tekkis emas unli hariflarni kuylaganda seziladi. Shuning uchun ovoz diopozonini tekkis chiqishga harakat qilinadi. Tembrni rivojlantirish uchun ovoz atamasi (yumshoq, qattiq) ustida ishlash lozim. Vokal ustida ishlansa tembr tekkissizligi tomoq qisvolishlik burundan tovush chiqarish kabi keraqsiz noto'g'ri narsalarni oldini olgan bo'lasiz.

O'n bir yashar o'quvchilarda past va yuqori ovozlar ko'krakdan chiqqan tovushlar paydo bo'lganini ko'ramiz. To'g'ri va bir xil bu ovozlar

bilan ishlansa bu ovozlar kuchli va rang-barang bulishi mumkin. O'n ikki va o'n uch yoshda ovoz diapozoni detsimaga etadi. (do – mi – fa) eng chekkadagi ovozlar bilan. Ehtiyot bo'lish kerakki kamdan kam ishlatish lozim. Bu yoshdagi bolalar bilan ishlash qiyinchilik tug'diradi, ovoz mutatsiyasi boshlangan bo'ladi, o'quvchilar injiq gap uqmas bo'ladi. Ovozlar ham sekin asta o'zgarishni boshlaydi, bolalar ovozidan kattalar ovoziga o'tish davri boshlanadi.

Oxirgi o'n yil ichida ko'p bolalarni ovozi, 11-13 yoshda o'zgarilyapdi. Bu o'zgarish hamma bolalarda bo'lib o'tadi.

O'quvchilarda mutatsiya har xil o'tadi, shuning uchun musiqa o'qituvchisi har bir bolani rivojlanishga katta ahamiyat berishi kerak. O'quvchilarni shu davrda ularga mos diapazonda kuylatish lozim. O'g'il bolalar mutatsiya davrida (garmon) tez uzuniga o'sadi. Ovoz (vaznasi) ikki barobar uzunlashadi ovoz diapazoni kichik oqtavaga o'tadi. Birorgi o'quvchilarda bu davr juda og'ir kechadi va o'g'il bolalar kuylashdan bosh tortadi. O'qituvchi bunga yo'l qo'yishi lozim.

Qizlarda mutatsia uncha sezilarli bo'lmaydi, lekin ovozda yorqinlik, quvnoqlik yo'qolib charchoq, uyquso'rashlik paydo bo'ladi. Bu nerv sistemasini kuchsizlanishi bilan bog'liq. O'qituvchi kamroq kuylatib ko'proq eshitish qobiliyatini o'stirish bilan mashxur bo'lishi lozim.

Oxirgi o'qituvchilarni izlanishlaridan shuni aytib o'tish lozimki bu davrda o'quvchilar musiqa asboblarni chalishni o'rgatish kerak. Eng foydali asboblari puflab chalinadigan asboblardir. Bu asbobda to'g'ri nafas olishni o'rganadilar mutatsia davri ham yengil ko'chadi.

Vokal xor malakalari.

O'quvchilarga xorda kuylash jarayonini o'rgatishda vokal – xor malakalari katta ahamiyatga ega. Uning maqsadi ovozni tinglash bolalar ovozini rivojlantirish. Vokal – xor malakalarini ikkiga bo'lish mumkin:

1. Kuylanadigan asarga daxli bo'lmagan asarlar.
2. Asardagi kuyni joylaridan na'munalarini kuylash.

Bu malakalarni ishlatishdan maqsad o'quvchilarda shularga muhtojlik sezishni o'rgatish, asarlarni yiriklashgan sari o'quvchilarni malakalari oshib borishi lozim. Mashqlarga oddiy musiqa materiallaridan foydalanish mumkin. Hamma mashqlar o'quvchilar kuchi etadigan darajada bo'lishi lozim.

Vokal – xor malakasini egallashda xor kollektivlari uchun mahsus mashqlar katta ro'l o'ynaydi. Bu mashqlar turlicha bo'lib, har xil mashqlarni ko'zda to'tadi. Nafasni mustahkamlash, ovozni rivojlantirish, uning rovonligini, harakatchanligini ta'minlaydi, diopozonni kengaytirish tovush hosil qilishda yagona usulni yo'llash, sof intonatsiyani yuzaga keltirish, garmonik uquvni o'stirish, talaffuz aniqligiga erishish va boshqalar. Hullas bu mashqlar xonandalarga ifodali ijroning texnik va badiiy usullarini egallashga yordam beradi. Ayrim mashqlar kompleks harakterga ega bo'lib, turli malakalarni baravariga rivojlantiradi. Kundalik mashqlar bilan shug'ullanilmasa asar ijro etishni o'rgatish jarayoni cho'zilib ketadi. Mashqlar musiqa materiali hamda texnik vazifalarga ko'ra puxta va xilma-xil tanlanishi lozim.

Xor bilan ishlash malakalari.

O'qituvchi har doim ikkita yo'nalish bo'yicha ishlaydi va sinf jamoasini xor sifatida tarbiyalaydi, sinfga bir xil moxirona va tasviriy talab qo'yadi va har bir o'quvchi o'z ovozigga ega bo'lishlikka o'rgatadi, shuning uchun sinf jamoasini tarbiyalashda har bir o'quvchiga yo'l topish lozim.

O'quvchi bilan yakka ishlash jarayoni har xil bo'ladi. Har darsda o'quvchini kuylatib ovoz holatini rivojlanishini va dinamikasini tekshirib turish, kuylashni kuylashni xoxlamagan o'quvchilarga boshqacha usul qo'llash mumkin. O'qituvchi kuyni chalib kuylab berishi, kuyni ovozga qarab qo'l bilan baland pasligini ko'satib kuyni ritmini topish va kuylash, oxirgi ikkita frazasini kuylash va qaysinisini uzun va qisqaligini aniqlash.

Har bir sinfda aniq tonli kuylay olmaydigan o'quvchilar bor. Buni buni aniqlash uchun o'qituvchi avval ovozi va eshitish qobiliyatini tekshirishi kerak, ko'pincha o'quvchilar eshitish qobiliyati yo'qligidan noto'g'ri

kuylaydilar va falsh kuyladigan o'quvchilar bilan ishlashda o'quvchi ovoz uchun mashqlar; (chumchiqlar, itlar, mushuklar ovozlari o'xshatish yoki o'zgartirib ifodalash yo'llari) shunday sharoit tug'dirish kerakki kuylamaydigan o'quvchilar ham harakat qilishsin, o'z hoxishlari bilan yoki birorta tanish yengil kuyni "lya", "do" tovushlari bilan kuylash orqali og'izni yumib yoki ochiq holatda, qisqa va uzun tovushlar bilan o'quvchilarni qiziqtirish lozim. Bunday o'quvchilar bilan ishlashda matoniyatga erishish uchun yaxshi ovoz va musiqa qobiliyati bor o'quvchini oldiga qo'yishi kerak. shunda u yonida turgan o'quvchiga sekin asta tahlil qilishi mumkin.

Asosiy talab asar tanlashda o'quvchilar ovoziga mos ravishda tasvirga ega bo'lishi kerak. Asar ustida ishlashdan avval o'qituvchi asarni tahlil qilib, ovoz baland pasligini o'quvchilarga mosligini, qiziq yoki qiyinligini bilishi lozim.

Asar ustida ishlashdan avval o'qituvchi o'quvchilar bilan asar haqida so'z olib boradi. Bu so'zlashuv o'quvchilarga asar haqida ta'surotga ega bo'lishida yordam beradi, keyin esa kuyni ko'rsatishi lozim. Bu jarayon har xil bo'lishi mumkin: O'qituvchi tamonidan ijro etilishi, bir necha yaxshi kuylaydigan bolalarni ajratib kuylatish, magnitafon lentasini eshitish, o'qituvchi ijro etgandan so'ng o'quvchilar ijro etilishini taqqoslash uchun.

Ikki yoki uch ovozli xor uchun ashulalarni o'quvchilarga notaga yozilgan holatda tarqatilsa yaxshi bo'ladi. Ovoz yo'nalishini tezroq esda qolishlariga yordam beradi. Ashulani eshitgandan so'ng o'qituvchi yana suxbat kiritadi va shu suxbatga ashullani yoddanligini, asarni harakterini, asarni yorqin joylarini va bastakori kim va nima xaqda kuylamoqchiligini so'rab surishtirib oladi.

Bu jarayon o'quvchini ashula ustida ishlashga tayyorlaydi va o'quvchi bu ashullani qay darajada tushunganligini aniqlaydi. Kuy ustida ishlashda eng avvalo texnik va tasviriy birligiga e'tibor kiritish lozim. Xor bilan ashullani darsda o'rganishda musiqali tasvirlashni emotsional aniqlik va

bilimni talab qiladi. Shuning bilan tasvirni ochib ashulladagi obrazlarni ko'rsata bilish va vokal – texnikasidan foydalanishni bilish lozim.

Ko'pincha xor asarini tugallangan jumalari bilan kuylab ishlanadi, shuning bilan nota yozuvi orqali o'rganish talab qilinadi, bu usul tezroq esda qolishiga yordam beradi. Ashullani yotdan so'zlariga ahamiyat berish lozim, undagi musiqali obrazga so'zlarni aniq va ravshan chiqishiga e'tibor berish lozim. Kuyni eslab qolgandan keyin o'qituvchi reja tuzib olishi lozim.

Boshlang'ich sinflarda ashullani yodlash uchun o'zgacha bo'ladi, birinchi sinf o'quvchilari bilan ashullani eshitib kuylash usuli qo'llanadi. O'qituvchi so'zlarini aniq va ravon o'qib beradi, o'quvchilar aniq so'zlarni tushunish va so'zlash uchun birinchi ko'pletni yodlagandan so'ng o'qituvchi yakkaxon kuylaydigan o'quvchini tanlab kuylatadi, xor esa orqasidan qaytaradi. Har bir bolani o'qituvchi eshitishga harakat qiladi va noaniq kuylaganga yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bir xil ashullani ko'p kuylashda zerikmaslik uchun ikki yoki uchta o'xshash kuylar tanlanadi. Shuning bilan xor bilan ashulla ustida ishlashda o'qituvchi o'quvchilarda musiqaga moyilligini, san'atga qiziqishini vokal – xor malakalarini va uni ustida ishlashni va musiqa obrazlarni tasvirlanishlarini rivojlantiradi.

Xor bilan kuylash bu jamoa bo'lib kuylashni eng yaxshi usuli. O'quvchilarni xor bilan kuylashga jalb qilish – bu o'quvchilarda musiqa madaniyatini o'stirish hisoblanadi. O'qituvchini yutug'i bu ishda o'quvchilarni yoshiga qarab ovozini bilgan holda, har bir o'quvchiga alohida e'tibor bergan holda, ularni musiqa madaniyatini va bilimlarini ko'rib rivojlantirish kerak.

Xor malakalari.

Xor malakalari gavdani to'g'ri to'tish nafasni rejaga solish, tovush hosil qilish ansambl va dinamika ustida ishlash har bir sinf uchun alohida belgilangan.

Bolalar ovozini parvarish qilish, vokal xor malakalarini oshirishda, ashulla o'rganishdan oldin mahsus vokal mashqlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda avval o'quvchilarning ishchi diapazonining o'rta o'rta tovushlaridan boshlab pastga tomon yo'naluvchi tetpoxodlardan foydalaniladi. Nafas esa me'yorida, shovqinsiz, yelkani ko'tarmay, o'z vaqtida olish va mayin kuylashga alohida e'tibor beriladi.

Qattiq gapirish, baqirish, taom va ichimliklarni juda issiq yoki sovuq holda istemol qilish ovoz pardalarini hastalantirishi haqida o'quvchilarni har doim ogoxlantirib boorish lozim. O'quvchilar ovozini asrash ustida mumtazam ish olib borish, ovoz apparatlarining sog'lom rivojlanishini ta'minlashda muhim ro'l o'ynaydi.

Xor kollektivining ijrochilik madaniyati xonandalarning vokal (ashulla) va xor ijrochiligini mahoratlariga bog'liq. Vokal mahoratiga xonandaning turish holati, nafas tovush hosil qilish va talaffuz kiradi.

Xor ijrochiligi san'ati o'ziga hos bo'lgan xor sozlanishi egallashni talab qiladi. Sozlanish kuylash jarayonida intervallarni sof intonatsiya qilishidir. Turg'un xonandalik intonatsiyaga erishish barcha tovushlarni saqlash ularni balandliklariga qarab aniq muvozanatini saqlash, xor sadosida katta ahamiyatga ega. Xorning yaxshi sozlanganligi xonandalarning musiqaviy rivojlanganligiga birinchi navbatda ularning musiqa o'quviga va xonandalik malakasi (nafas olish, tovush hosil qilish, talaffuzni to'g'ri bajarish) ni qanchalik o'zlashtirganligiga bog'liq. Undan tashqari, ularning jismoniy va emotsional holati va shuningdek, ijro qilinayotgan asarning murakkabligi ham muhim ro'l o'ynaydi.

Cholg'u asboblari jo'rligida ijro etiladigan asarlarda yaxshi sozlanishga erishish bir muncha yengil, jo'rnavozlik intonatsiyani osonlashtiradi. Akapella bo'lib ijro etganda tiniq sozlanishga erishish juda murakkab, chunki har bir xonanda o'zining lad – garmonik his qilishiga asoslanib sozlanadi.

Cholg'u asboblari jo'rligisiz ijroda xor qatnashchisidan o'z intonatsiyasi sofligiga diqqat qilishni, ayniqsa rivojlangan garmonik o'quvini talab qiladi. Shuning bilan bir qatorda, xuso'san jo'rsiz xor xonandaning lad va garmonik his etilishining rivojlantirib melodik va garmonik o'quvini o'stirishga imkon yaratadi. Xor ansamblini chuqurroq sezishga ijrochilik saviyasining o'sishiga katta ta'sir etadi.

Musiqi savodi

Musiqi savodi bo'yicha ma'lum hajmda bilim berish nota bilan kuylash malakalarini hosil qilishga ham alohida e'tibor beriladi. Tuvush qator bosqichlarining baland – pastligi, nota chiziqlariga joylashuvi, pauzalarning uzun qisqaligi, o'lchov, major va minor lادلari, dinamik tuslari kabi musiqaning nazariy elementlari bilan tanishadilar.

Musiqi savodida berilayotgan tovushlarning tabiiy jarangi bilan bog'lab borish muhim ahamiyatga ega. Bosqichlarning aniq balandligi va notalarning cho'zimini his etishda, kuylash malakasini takomillashtirishda nota bilan kuylashga alohida e'tibor beriladi. Kuy va qo'shiqlarning musiqiy matnini solfedjio qilib ayta olishga, oddiy tahlil qila bilishga o'rgatish orqali o'quvchilarga musiqaning oddiy to'zilishi haqidagi tushunchalar singdiriladi va ular bora-bora oddiy ohangni nota bilan kuylab bera olish darajasiga erishishadi. Musiqi taassurotini boyitish, tasavvo'rini kengaytirish, tinglash qobiliyatini o'stirish va musiqiy didini tarbiyalashda, musiqi tinglash faoliyati juda katta ro'l o'ynaydi.

Bu faoliyatda tinglovchilar magnitafonda, televizorda yoki birorta musiqachini ijrosida birorta asarni namunalı ijrosini tinglaydi. Xor orkestr, ansambl va yakka ovozlari ya'ni solistlar ijrosida turli janrdagi klassik janrlar bilan tanishishadi, san'atning katta dargoxlariga qadam tashlashadi. Musiqaning san'at sifatida tasavvurlash qudratini, tabiat va hayot go'zalligini, boqiylik va hatti harakatlarida qaytarilmas, ko'z ilg'amas qirralarini musiqiy ohangdagi rang-barang bo'yoqlarida idrok qilib chuqurroq his etadilar. Kuylar o'quvchilarning xotirasida chuqur o'rnashib qolishi uchun bu kuylarning

ohanglarini o'quvchilar bilan kuylanadi. Ayniqsa asar musiqa asbobi ijrosida tinglanib so'ng kuylab ko'rish orqali qayta mustahkamlanadi. Kuylarni tinglash bilan o'quvchilar musiqaning turli janrlari - marsh qo'shiq va raqs haqida batafsil tushunchaga ega bo'lishadi.

Xor ansambl, yakkaxon to'garaklar tashkil topgan bo'lsa, musiqaga bo'lgan havas va ishtiyoq yanada oshadi. Kechalar, turli bayramlar, tantana va tadbirlar o'stirib kelayotgan san'atkorlarni estetik tarbiyalash juda katta ahamiyatga ega. Bunday tadbirlar ota-onalar bilan bamaslaxat ish olib borilsa yanada esda qolarli va qiziqarli bo'ladi, va ota-onalarni hamkorligida bo'lsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

II.2.Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodlari

Zamonaviy musiqiy darslarini badiiy - pedagogik asar deb hisoblash mumkin, chunki uni o'qituvchi o'z individual ijodidan va tajribasidan kelib chiqqan holda yaratadi. Darsning kompozitsiyasi va dramaturgiyasi uning badiiy – pedagogik g'oyasi, maqsad va vazifalari, shakllari, metodik usullari va texnologiyalari ham o'quvchilarda musiqaga qiziqishni o'stirish, ularga musiqa san'ati va madaniyatining ma'naviy mavzusini singdirish, zamonaviy musiqali – ijodiy faoliyatini anglash – bo'lar hammasi o'qituvchining ijodiy sohasiga kiradi.

O'qituvchi musiqa darsi rejasini tuzganda maqsad, vazifani, mavzusini, to'rini va o'qitish shakllarini, musiqa faoliyatlarini va ularni o'quvchilarga singdirish uchun kerakli metodlar, texnologiyalar va usullarni aniqlab, so'ng darsning stsenariysini tuzadi. Dars bir umumiy sxemada tuziladi. Har bir faoliyat turelari: musiqa tinglash, jamoa bo'lib kuylash, musiqa savodi, ritmik harakatlar – bir-biri bilan bog'lanib uzviylashtirilgan bo'lishi kerak. Bunda o'quvchilarni darsda faol qatnashtirish uchun turli xil texnologiyalar, vositalar, metod usullari va yo'llari ishlatiladi. Ma'lumki, har qanday pedagogic texnologiya ta'limning yangi loyixasini rivojlantiruvchi ta'lim tamoillariga asoslangan bo'lib, o'quvchi shaxsiga yo'nal'tirilgan bo'lishi kerak. O'qituvchi va o'quvchi, o'quvchi va o'qituvchilarning hamkorligi, o'zaro muloqoti, bir-biriga ko'rsatadigan ta'siri zamonaviy talablar asosida tashkil topishi lozim. Bunday jarayonda o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlash malakalari shakllanadi. O'quvchining faol, samarali faoliyat ko'rsatishiga yo'nal'tirilgan ta'lim jarayonining metodik ishlanmasidan farqli ravishda, ta'limning pedagogik texnologiyasi ta'lim oluvchilarga qaratiladi, shuningdek, ularning shaxsiy va o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatini hisobga olgan holda o'quv materialini o'zlashtirishga sharoid yaratadi.

Pedagogik texnologiya to'ri tanlash dars va mashg'ulotlarda qaysi darajadagi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish nazarda tutilganligiga bog'liqdir.

O'qitish jarayonida qo'llaniladigan usullar juda ko'p. Bu usullar o'quvchilarning yosh xususiyatlariga, ko'pchilikni o'qitishga yoki individual ta'lim berishga mo'ljallangan bo'ladi. Darsning har bir elementini amalga oshirishda uning mohiyatini bolalar bilimi va hayotiy tajribalariga asoslanib tushuntirish lozim.

Hozirgi kunda yangi pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga kuchayib bormoqda. Chunki pedagogik texnologiya va interfaol metodlar o'quvchi yoshlarni yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Hozirgi kunda amaliyotda pedagogik texnologiyani qo'llash dars jarayonini demokratlashtirish bilan birga o'qituvchi va o'quvchi hamkorligini hamda uning ijodkorligini rivojlantiradi. O'quvchi va o'qituvchining doimiy do'stona munosabatda bo'lishi dars samaradorligini oshirish, o'quvchilarning bilim doirasini o'stirishga asosiy omil bo'lmoqda.

Pedagogik texnologiya o'quv jarayonini texnologiyalashtirishni aniqlovchi tizimli kategoriyadir.

“Texnologiya” yunoncha “Texnos” – mahorat, san'at va “Logos” – fan, ta'limot so'zlaridan tashkil topgan.

Interfaol

O'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi asosida do'stona muhit yaratish, dars samaradorligini oshirish, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, fikr – mulohaza yuritish, munosabat bildirish ko'nikmasini shakllantirish demakdir. Bu usulda o'quvchi o'zi faol ishtiroq etgan holda, yakka, juftlikda, guruxlarda muammo va savollarga javob topishga harakat qiladi, fikrlaydi, baholaydi, yozadi, so'zga chiqadi, dalil hamda asoslar orqali qo'yilgan masalani yoritib berishga harakat qiladi. Bu esa o'quvchilarning xotirasida uzoq saqlanadi. Yangi mavzu (axborot) ni o'zlashtirishda tanqidiy,

tahliliy yondosha oladi. O'qituvchi faqat fasilitator (yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, tashkil qiluvchi, kuzatuvchi) vazifasini bajaradi.

Ilg'or pedagogik texnologiyalarining juda ko'p usullari mavjud. Bu usullardan o'quvchining yoshi, psixologik xususiyati bilim darajasiga qarab foidalanish mumkin.

Aqliy hujum

“Aqliy hujum” – sinfdagi har bir o'quvchiga o'qituvchi qo'ygan savol yoki muammo yuzasidan o'z fikrini bayon etishga imkon beruvchi o'quv uslubidir. Uslub mohiyati “bir kalla – yaxshi, yigirmatasi undan a'lo” printsipli bo'yicha o'quvchi tomonidan belgilangan muammo yoki savol yuzasidan extimol tutiladigan hamma fikrlar variantlarini bir yerga jamlash istisno tariqasida ta'lim oluvchilarning barcha fikrlarni, shu jumladan, aytarli to'g'ri bo'lmaganlarini ham inobatga olishdan iborat.

Bunda yaxshi idrok etilishi uchun ana shu fikrlarning barchasini doskaga yoki flipchart (mahsus yozuv qog'ozi)ga yozib boorish kerak. Bu narsa bayon etilgan fikrlarning keyingi tahlilida o'quvchilarning qo'yilgan savol yoki muammoni to'g'ri tushunishga undashga imkoniyat beradi.

“Aqliy hujum”ni o'tkazish uslubiyati uch guruxga bo'linadi:

1. O'qituvchi sinfga savol, topshiriq yoki muammo tashlaydi va o'quvchilarga o'z fikrlarini aytishni taklif qiladi.
2. Istisno tariqasida barcha fikrlar (qancha ko'p bo'lsa shuncha yaxshi) doskaga yoki flipchatga yozib boriladi.
3. Barcha fikrlar yozib olingandan keyin o'qituvchi o'quvchilar bilan birga g'oyalarni silliqalashtiradi, aytilgan fikrlarga tuzatishlar kiritiladi, keyinchalik ishdan foidalanish maqsadida ulardan eng muhimlari ajratib ko'rsatiladi.

“Aqliy hujum”ni o'tkazish qoidalari to'rt guruxga bo'linadi.

1. “Aqliy hujum” o'tkazish uchun belgilangan vaqt reglamentiga aniq rioya etish lozim.

2. Belgilangan vaqt doirasida barcha hoxlovchilarga o'z fikrini bayon etish imkoniyatini berish kerak.

3. O'quvchilar tomonidan aytilgan fikrlar tanqid va muhokama qilinmasligi yoki baholanmasligi lozim.

4. Zarur bo'lib qolgan taqdirda bayon etilgan fikrga tuzatishlar kiritish kerakki, bu narsa g'oya yoki fikrni aniq va qisqacha ifodalash imkonini beradi.

Kichik guruxlarda ishlash

Kichik guruxlarda ishlash uslubiyati ta'lim berish jarayonida ta'lim oluvchilarni maksimal faollashtirish maqsadini ko'zlaydi. Kichik guruxlarda ishlash asnosida alohida masalalar yuzasidan o'z fikrini ishlab chiqqan holda uni guruxda muhoqama qilishga va bildirilgan fikrlar asosida mushtarak nuqtai nazarga kelishga o'rganadilar. Bundan tashqari, o'quvchi spiker sifatida nutq so'zlashi va sinf ko'z oldida gurux nuqtai nazarini isbotlashi kerak bo'lganda sinf oldida so'zlash malakasi ham vujudga keladi.

Kichik guruxlarda ishlashni o'tkazish uslubiyati bir necha turga bo'linadi:

1. Topshiriq, savol asosida muammo tanlab olinadi. Topshiriqda baxsli jixatlar bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

2. Kichik guruxlar shakllantiriladi. Kichik guruxlardagi o'quvchilarning optimal soni 3-5 nafardan oshmasligi kerak, ammo topshiriq, sinf xususiyatlariga bog'liq tarzda ta'lim oluvchilar soni o'zgarishi mumkin. Kichik guruxlarda ishlayotganda gurux ishtiroqchilari o'rtasida vazifalarni taxsimlagan ma'qul.

Masalan, bir o'quvchi munazarani yuritadi ikkinchisi, qabul qiluvchi qarorni qog'ozga yozib boradi, uchinchisi o'qituvchi ishga ajratgan vaqtini nazorat qiladi. To'rtinchisi esa, gurux qarorini taqdim etadi va ho kazo. Odatda ikki asosiy usuldan foidalangan holda sinf guruxlarga ajratiladi. Birinchisida, o'quvchilar hoxishiga ko'ra guruxlarga mustaqil, ikkinchisida

esa hisoblash uslubi bilan ajraladilar, (masalan birinchi – to'rtinchi, ana shundan keyin raqamlari bir xil o'quvchilar bitta guruxga birlashadilar).

3. O'quvchi vaqt chegarasini ko'rsatgan holda guruxlarga aniq yo'l-yo'riq beradi.

4. Guruxda ishlash yakunlangandan keyin qaror taqdimoti o'tkazilishi, uni spiker taqdim etishi kerak. Bordi-yu zaruriyat bo'lsa, taqdimot natijalari doskada yoki vatmn varag'iga yozib boriladi. Vaqt doirasi imkon bersa, guruxlar bir-birlariga savollar beradilar.

5. Taqdimot natijalari yuzasidan muhoqama va baholash o'tkaziladi. Bunda quyidagi savollarni berish mumkin:

- Kichik guruxlarda ishlashda qanday natijalarga erishildi?
- Qaysi muammo tilga olindi. U o'z yechimini topdimi?
- Va ho kazo.

Kichik guruxlarda ishlashni o'tkazish qoidalari to'rt xil bo'ladi.

1. Kichik guruxlarda ishlash uchun belgilangan vaqt reglamentiga aniq rioya etish lozim.

2. Guruxlarga yordam berayotganda o'qituvchi tazyiq o'tkazmasligi lozim.

3 O'quvchilar aytgan fikrlar boshqacha nuqtai nazarda bo'lgan ta'lim oluvchilar tomonidan nazarda tutilgan reglament doirasiga asoslangan tanqidga yoki muhokamaga tortilishi mumkin.

4. Zarur bo'lib qolgan taqdirda, bayon etilgan fikrga tuzatishlar kiritish kerak, bu narsa g'oya yoki fikrni aniq va qisqacha ifodalash imkonini beradi.

Tarmoqlar “Metodi” (Klaster)

Fikrlarning tarmoqlanishi – bu pedagogik strategiya bo'lib, o'quvchilarni biron bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib, o'quvchilarni mavzuga taalluqli tushincha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'langan holda tarmoqlashlariga o'rgatadi.

Bu metod biron bir mavzuni chuqur o'rganish avvalo, o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda o'quvchilarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklda ifodalashga undaydi. Masalan:

Musika asari jumlasiga o'quvchilar mos so'zlarni topib ularni strelkalar yoniga yozadilar: qo'shiq, kuy, ohang, raqs, janr, she'r, harakter, usul, kompozitor, shoir va hoqazo. Bu vazifa o'qituvchi yordamida bajariladi.

“Bumerang” Texnologiyasi

Mazkur texnologiya bir mashg'ulot davomida o'quv materialini chuqur va yaxlid holatda o'rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yo'nal'tirilgan. U turli mazmun va harakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo'lgan mavzularni o'rganishga yaroqli bo'lib, o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg'ulot davomida har bir ishtiroqchining turli topshiriqlarini bajarish navbat bilan o'quvchi yoki o'qituvchi ro'lida bo'lishi kerakli balni to'plashga imkoniyat beradi.

“Bumerang” texnologiyasi tanqidiy fikrlash, mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi: g'oyalarni, fikrlarni, dalillarni yozma va og'zaki shakllarda bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ta'lim bilan bir qatorda mazkur metod tarbiyaviy harakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi.

- Jamoa bilan ishlash,
- Muomalalilik,
- Hushfellilik,
- Ko'nikuvchanlik,
- O'zgalar fikriga hurmat,
- Faollik,
- Raxbarlik sifatlarini shakllantirish,
- Ishga ijodiy yondashish,

- O'z faoliyatining samarali bo'lishiga qiziqish,
- O'zini holisona baholash.

Asosiy tushunchalar quyidagilar.

Ochiq savollar – bu savollar muomala so'zlashuvini davom ettirishga imkon beradi. Ularga qisqa, bir xil javob berish mumkin emas.

Yopiq savollar – bu savollar “Xa” yoki “Yo'q” tipidagi to'g'ri, ochiq javoblarni berishni ko'zda to'tadi.

Ko'ndalang so'roq bir-biriga guruxlab beruvchi qisqa savollar qatori bo'lib, bu o'ziga mos axborotlar ishlash hamda dalillarni opponentlar pozitsiyasini anqlash va muayyan qarorlar qabul qilish uchun ajoyib imkoniyatdir.

Ko'ndalang so'roq paytida manozaraga kirish mumkin emas. Bu vaqtda faqat savollar beriladi. Munozaraga kirishilmaydi.

Masalan: sinf o'quvchilariga savol beriladi – “Musiqachilar kimlar so'roq”. O'quvchilar guruxga bo'linib, guruxlar bir-biriga savol berib, ketma-ketligi bilan javob beradilar:

1-gurux: Musiqachilar bu shoirlarmi?

2-gurux: Musiqachilar bu ijrochilar.

2-gurux: Qo'shiq aytuvchilar bu cholg'uchilarmi?

1-gurux: Qo'shiq aytuvchilar bu xonandalar.

Va ho kazo.

O'qituvchi o'quvchilarga uyga vazifa beradi. “musiqachilar kimlar?” mavzusiga savollar tayyorlab kelish va “Bumerang” o'yinini o'tkazish to'g'risida tushuntiradi.

“Fikrlar hujumi” Texnologiyasi

Bevosita jamoa bo'lib “fikrlar hujumi” texnologiyasini olib boorish, bu metoddan maqsad, mumkin qadar katta miqdordagi g'oyalarni yig'ish, o'quvchilarni yani bir xil fikrlash inertsiyasidan holi qilish, ijodiy vazifalarni yechish jarayonida dastlab paydo bo'lgan fikrlarni yig'ishdir.

“Fikrlar hujumi” texnologiyasi katta guruxlarda (20 dan – 20 ta gacha bo’lgan) yangi g’oyalar ishlab chiqish samaradorligini sezilarli darajada oshirishni ta’minlaydi. Barcha ishtiroqchilar kichik-kichik yani 5-6 kishidan iborat guruxlarga bo’linadi va har bir kichik gurux hal qilinadigan ijodiy vazifa va muammo bo’yicha 15 daqiqa davomida mustaqil ravishda o’zaro “fikrlar hujumi” o’tkazadi. Shundan so’ng, har bir kichik gurux vakili o’z guruxlarida ishlab chiqilgan g’oya haqida axborot beradi va o’qituvchi rahbarligida jamoa bo’lib unga baxo beradilar va ularning eng yaxshilari tanlab olinadi.

Qo’shiq o’rgatish tamoyillari

Qo’shiq o’rgatishdan oldin o’qituvchi qo’shiqni tanlashi kerak. Qo’shiqning badiiy – g’oyaviy mazmuni bayramlarga, yil fasllariga, o’quvchilar diapozoniga va yoshiga mos bo’lishi kerak. Qo’shiq quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- Tarbiyaviy ahamiyati, siyosiy – g’oyaviy mazmuni, musiqiy tuzilishi va karakteri o’quvchilar yoshiga mos bo’lishi.

- Matnning osonligi, badiiy yuksakligi, bolalarning lug’at boyligiga mosligi va ularning nutqini o’stirish uchun hizmat qilishi.

- Ohangi, uning karakteri (Xushchaqchaq, quvnoq, marsh, mungli) lad va tessituras, ovoz diapozoni o’quvchilar yoshiga mos bo’lishi.

- Badiiy hususiyati va ifodaviyligi, bolalar idrokiga mosligi, garmonik to’zilishi va ohangdoshligi.

- Shakli, necha qismdan iboratligi (1,2 qismli yoki ko’plet shaklida tuzilganligi), naqoratning mazmundorligi.

Qo’shiqni tushuntirishda o’qituvchi qisqa, mazmunli, obrazli, qiziqarli hikoya qilib beradi. Qo’shiq mazmunidagi axloq – odob, tabiat, ona – vatan, mehr – mahabbat haqidagi g’oyalarni bolalar ongiga singdirib, ularga qiziqish uyg’otadi. So’ngra, qo’shiqni ifodali qilib, mayin ovozda ijro etib beradi. Qo’shiq mazmuniga mos illyustrativ – tasviriy vositalardan foydalanishi kerak. O’quvchilar bilan qo’shiq mazmuniga va tuzilishiga hos

savol – javoblar qilib, qo'shiqni musiqiy jumlalarga bo'lib o'rgatadi. So'ngra o'quvchilar qo'shiq mazmuniga mos musiqiy – ritmik harakatlar bajaradilar. Matn va ohang talaffuzining aniqligi ma'lum me'yorda tuzgandan so'ng, qo'shiqning badiiy ijrosiga erishiladi. Qo'shiqni vaqti – vaqti bilan takrorlab kuylab turish lozim, aks holda uning matni o'quvchilar hotirasidan ko'tariladi va unga nisbatan qiziqish so'sayadi. Har bir darsda, ayniqsa yangi qo'shiqni o'rgatishda oldin, ilgari o'rganilgan qo'shiqni takrorlab turish, bolalar ijrosidagi ayrim nuqsonlarni tuzatib borishga yordam beradi. Bolalar toliqmasligi uchun qo'shiq o'rgatish shakllari o'zgartirib turiladi. Masalan: guruxlarga bo'lib o'rgatish, bu ish yakkahon va xor jo'rligida yoki musiqiy harakatlar yordamida amalgam oshirilib, bolalar ovozigam dam beriladi. Qo'shiq mukammal o'rgatilgandan so'ng, ularning qiziqishi yanada ortadi.

Xulosa

Xor deb mahsus tashkil qilingan, vokal – xor texnikasiga, badiiy – ifoda vositalariga ega bo'lgan va shu vositalar orqali ijro qilinadigan asarning mazmunini eshituvchilarga yetkazib bera oladigan jamoani atash mumkin.

Musika maktablarida xor o'quv predmeti o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini, milliy g'urur va vatanparvarlikni shakllantirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashbbuskorlikni tarbiyalashga hizmat qiladi. Jamoa bulib kuylash o'quv predmeti musika maktablarida o'qitiladigan barcha o'quv predmetlari jumladan, mutaxassislik, musika nazariyasi, solfedjio, musika tarixi, notani varakdan ukish va umumiy fortepiano fanlar bilan uzviy bog'langan.

Barcha o'quv fanlari qatori musiqiy ta'limda ham davlat ta'lim standartining joriy etilishi milliy musiqiy merosdan to'laonlik foidalanish imkonini beradi. Bo'lar ommaviy xalq kuyi va qo'shiqlarida xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyati, zamonaviy musiqiy faoliyatda o'z aksini topgan. Musika san'atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalash, ularning barkamol bo'lib yetishishlarida o'ziga hos va takrorlanmas manba bo'lib hizmat qiladi. Azaldan sharq, jumladan, o'zbek musika ta'lim – tarbiyasi pedagogikasi va uning mukammal uslubiyatlari ustoz va shogird an'analari misolida takomillashib borgan.

Jamoa bo'lib kuylash faoliyati o'quvchilarning musiqiy qobiliyati hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarur. Jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchi o'zining ovoz ijrosini boshqarishni, ustozlari ijrosini eshitib, kuzatishni hamda ular bilan bahamjixat jornavozlik qilishni o'rganadi.

O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi o'z professional xor san'atiga ega bo'lmasa-da, lekin qadim zamonlardan beri jamoa (xor) bo'lib qo'shiq aytish an'alariga ega bo'lgan. Ma'lumki o'zbek xalqi ham, boshqa

xalqlar kabi asrlar davomida o'zining mehnat faoliyati, turmush tarzi bilan bog'liq bo'lgan musiqiy durdonalarini yaratgan, e'zozlagan va uni og'zaki usulda avloddan – avlodga qoldirgan.

O'zbekistonda milliy – professional xor san'ati yuzaga kelishida 1961 – yil Respublikamizda televidenie va radio qoshida tashkil topgan. B.Umidjonov xabarligidagi xor kollektivi muhim hissa qo'shgan. Bu xor orqali xor san'atini aktiv targ'ib qilib kelgan. B.Umidjonov shu xorga juda ko'p asarlarni yozgan va qayta ishlagan.

An'anaviy Navro'z – lola bayramlarida yigit va qizlarning qo'shiq aytishi, qadim zamonlardan beri to'ylarda aytiladigan yor-yor, yallalar xor (va yakkaxon) bo'lib ijro etilgan. Asrlar davomida to'plangan ko'xna meros « SHashmaqom»ning vokal qismidagi taronalar ham uch – to'rt (va undan ko'p) xonandalar tomonidan jamoa bo'lib aytilgan. Xalqimiz orasida keng tarqalgan (ayniqsa, Farg'ona vodiysida) « Katta ashula»lar ham ikki, uch va hatto to'rt kishilashib ijro qilingan. Bu ijrochilik formalari ham jamoa ijrosining bir turidir. Shuni ham aytib o'tish kerakki, yuqorida eslatilgan janrlar bir ovozda (ba'zi biri ayollar, ba'zi biri erkaklar tomonidan) ijro qilingan.

Musiqadagi maqsad va vazifalarni amalga oshirish o'qituvchining professional va axloqiy qiyofasiga bog'liq. Har qanday san'atkor ham maktabda musiqa darsini olib bora olmaydi. Buning uchun musiqa o'qituvchisi o'z kasbiga va bolalarga mehr qo'ygan yuksak madaniyatli, keng qarashga ega bo'lgan shaxs bo'lmog'i lozim. Musiqa o'qituvchisi musiqa san'atining nazariy va amaliy sohalaridan etarli darajada bilim, ko'nikma va tajribaga ega bo'lishi lozim. Ya'ni u ham cholg'uchi, xonanda, moxir dirijyor, jurnavoz, musiqa nazariyotchisi va amaliyotchisi sifatida ish yuritmog'i va ko'rsatmog'i lozimdir. Dars musiqa tarbiyasida yetakchi omil hisoblanadi, chunki bolalar yalpi tarzida qamrab olinadi. Musiqa bolalarni aniq va axloqiy tarzda katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun musiqa darslari ong va avvalo tarbiya darsi deyiladi.

Xor grekcha “xoros” – “yig’ilish” ma’nosini bildiradi. Qadimiy Grek teatr spektakllarida qatnashuvchi ashullachilar “xorvetlar” nomi bilan yuritilgan. Xor ijodiy uyushgan jamoa bo’lib, u ma’lum ovozga ega bo’lgan ijrochi xonandalardan tashkil topadi. Uning harakterli belgilaridan biri – bu xordan yakka tembrlarning qo’shilishidan hosil bo’ladigan o’ziga hos tembrdir. Demak, xor deb mahsus tashkil qilingan, vokal – xor texnikasiga, badiiy – ifoda vositalariga ega bo’lgan va shu vositalar orqali ijro qilinadigan asarning mazmunini eshituvchilarga etkazib bera oladigan jamoani atash mumkin.

Xor turi xorning to’zilishiga qarab aniqlanadi. Turiga qarab bir yoki aralash bo’lishi mumkin, bir xildagi xorlarga alohida erkaklar xori, ayollar xor, bolalar xori kiradi. Aralash xorga bolalar bilan ayollar xori, ayol va erkaklar xori kiradi. Xor ko’rinishi xorni tashkil qiluvchi mustaqil xor partiyalarining soni bilan belgilanadi. Ikki ovozli xor uch, to’rt ovozli xor va ho kazo. Har bir xor partiyasi ma’lum bir joyda 2 – 3 ovozlariga bo’linishi mumkin. Bunday bo’linish divizi deyiladi. Aralash xor to’rt ovozdan iborat, lekin bundan ham ko’p ovozli bo’lishi mumkin. Divizi tufayli 6 yoki 12 ovozga bo’linadi.

O’zbekistonda professional xor san’ati eng kech rivojlana boshlagan san’at turlaridan biridir. Chunki dastlabki yillarda professional xor san’atini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yo’q edi.

Professional xor ijodi va ijrochiligining oddiy formalari musiqali dramalarda uchraydi. «Farxod va Shirin», «Gulsara» bularda ikki ovozli xor qo’llanilgan.

Xor ijrochiligi musiqa san’ati turi sifatida ikki – akademik va xalq ijrochiligi yo’nalishlarida rivojlanib kelmoqda. Kuylash usuli, tovush hosil qilish harakteri, ovozlarining tembr turlanishi ijrochilik texnikasi usullari va ifodalash vositalarining imkoniyatlariga qarab xor ijrochilik uslubi aniqlanadi.

Xor inson hissiyotiga kuchli ta’sir eta olish bilan birga o’quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va axloqiy – g’oyaviy

tarbiyalashning muhim vositasidir. Xorda kuylash – musiqaviy tarbiyaning jamoa faoliyati sifatida o'qituvchining bevosita ishtiroqi bilan amalga oshiriladi. Xorda kuylash murakkab psixologik va fiziologik jarayondir. Bunda bosh miyyadagi nerv hujayralari ham faol ishga tushadi. U qo'shiq kuylash davomida o'quvchilarda ijobiy hisning, tuyg'ularning faolligini ta'minlaydi. Hamda o'quvchilarning samarali ishlashiga sharoit yaratadi, shuningdek kuylashda bolalarning ko'proq qismi, tovush hosil qiluvchi azolari artikulyatsiya va nafas organlari o'zaro bog'liq holda faol ishtiroq etadi.

Zamonaviy musiqiy darslarini badiiy - pedagogik asar deb hisoblash mumkin, chunki uni o'qituvchi o'z individual ijodidan va tajribasidan kelib chiqqan holda yaratadi. Darsning kompozitsiyasi va dramaturgiyasi uning badiiy – pedagogik g'oyasi, maqsad va vazifalari, shakllari, metodik usullari va texnologiyalari ham o'quvchilarda musiqaga qiziqishni o'stirish, ularga musiqa san'ati va madaniyatining ma'naviy mavzusini singdirish, zamonaviy musiqali – ijodiy faoliyatini anglash – bo'lar hammasi o'qituvchining ijodiy sohasiga kiradi.

Hozirgi kunda yangi pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga kuchayib bormoqda. Chunki pedagogik texnologiya va interfaol metodlar o'quvchi yoshlarni yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

“Texnologiya” yunoncha “Texnos” – mahorat, san'at va “Logos” – fan, ta'limot so'zlaridan tashkil topgan.

HOWAR









Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati:

1. D.T.S. 2008 y. musiqa va san'at maktablari uchun.
2. I.A.Karimov - BMSM ni qayta qurish va rekonstruktsiya qilish asosidagi - 2008 y. 9 yanvar «Andijonnoma» gazetasida Chop etilgan «Farmoyish»
3. I.A.Karimov «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» Toshkent 2008 y.
4. J.G. Yo'ldoshev «Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish» Toshkent 2008 y.
5. B. Asafyev «O xorovom iskusstve» Leningrad, «Muzika» 1990 yil 5 b.
6. R. Xublarov «Havaskorlik xori» Toshkent «O'qituvchi» 1970 y.
7. L.Shamina «Rabota s samodeyatelnim xorom» Moskva «Muzika» 1981 y.
8. S.Popov. «Organizatsionnie i metodicheskie osnovi raboti samodeyatelnogo xora» Moskva Muzgiz 1997 yil.
9. N. Demyanov. «Shkola xorovogo peniya» Moskva Muzgiz 1999 y.
10. Sh.Ro'ziev «Xorshunoslik» Toshkent 1997 y.
11. S.Kazachkov «Dirijyorskiy apparat i yego postanovka» Moskva 1997.g.
12. A.Egorov «Teoriya i praktika raboti s xorom» Moskva 1991 y.
13. «Vzaimoobogoshenie muzikalnix kultur narodov Sredney Azii i Kazaxstana» Toshkent 1997 yil 102 bet.
14. «Istoriya o'zbekskoy muziki» Toshkent 1992 yil 69 bet
15. Kovbas M. «Nekotorie voprosi razvitiya muzikalnoy samodeyatelnosti v O'zbekistane». Toshkent 1991 yil 294 bet.
16. S. Yuldasheva «Razvitie muzikalnogo vospitaniya i obrazovaniya v O'zbekistane» Tashkent 1979 y. 64 – bet.
17. Ergash Toshmatov «Dirijyorlik» Toshkent 2008 y.
18. Medushevskiy V.V «Entsiklopediya yunogo muzikanta» Moskva 1995y.
19. Munojot Abralova «Musiqa» 2 sinf metodik qo'llanma Toshkent 2008 y.
20. N.A. Dolmatov «Muzikalnaya gramota i solfedjio» Moskva 1992 y.

M u n d a r i j a

Kirish.....	3-6
I.bob. O'zbekistonda xor san'atini rivojlanishi.....	7-12
I.1. Jamoa bo'lib kuylash tarbiya vositasi.....	13-16
I.2. Xor ta'limi va tarbiyasi.....	17-30
II.Bob. Xor haqida tushuncha.....	31-40
II.1. Professional xor san'tining rivojlanishi.....	41-54
II.2. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodlari.....	55-63
Xulosa.....	64-67
Ilova.....	68-72
Foydalanilgan adabiyotlar.....	73